— oshxona idish-tovoklarini, mexmonlarni kutishda zarur buladigan boshka buyumlarni bilishi;

— taomlarni, ichimliklarni navbat bilan tortish Koidalarini, taomlarga chiroyli kurinish berish usullarini, spirtli ichimliklarni taomlarga moslashtirib berilishini;

— banketlar, rasmiy va norasmiy kabullar uchun taomnoma tuzish koidalarini;

— lyuks va oliy toifadagi restoranlarda xorijiy mexmonlar uchun milliy, firma, buyurtma taomlar tayyorlash, ularni bezash va mexmonlar oldiga kuyish;

— kabul marosimlari, banketlar, tantanali kechalar va boshka tadbirlarda ayrim mijozlarga xizmat kilish-ning uziga xos tomonlarini bilish;

— xizmat kilish jarayonida taom va ichimliklarni ta'riflash, mijozlarga tegishli axborot berish;

— nazorat-kassa apiaratidan foydalana bilish, xisob-kitob kilishda xurandalar bilan xisoblashish;

— xizmat kilish jarayonida psixologik asoslarga va Professional etika koidalariga rioya kilish.

Ichki tartib koidalariga binoan ofitsiantlar kuyidagilarni bajarishga majbur: imuga uz

vaktida kelishi, ish kuni davomida xizmat kishi, bosh ofitsiant va brigadir topshirigini bajarishi, mexnat intizomiga katiyan rioya qilishi, uz ish joyini tuda tartibli va pokiza saklashi, mexnat muxofazasi talablariga anikrioya qilishi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya va shaxsiy gigiena Koidalariga buysunishi. elektroenergiya, anjom, inventar va boshka kimmata buyumlardan extiyot bulib, tejab-tergab foydalanish.

Xamma xodimlarning asosiy vazifasi xurandalarga Yukori darajada xizmat kursatish. Umumiy ovkatlanish tarmogining xizmati savdo korxonalarini faoliyati nati-jasidir. Axoli mazali taomlar bilan, ichimliklar bi-lan kancha yaxshi ta'mnlanisa, ular chin dildan minnat-dorchilik bildirsa — bu umumiy ovkatlanish xodimlari uchun katta mukofotdir.

Restoranlar tizimiga kompyuter texnologiyasini ki-ritgan raxbarlar boshkarishning govori darajalariga erishmokda. Bu usul mnjozlar uchun ayniksa katta kulaylik tugdiradi. Kuyidagi ishlarni bajarish avtomatik tarzda amalga oshirilnshi muljallanadi:

- dam olayotgan turista ar ning ovkatlanish grafigini ishlab chikish;
- buyurtmalar va ularning smenalarda bajarilishini xisobga olib taomnoma tuzish;
- ishlab chikarishni boshkarish;
- xizmatni boshkarish;
- yakka buyurtmalarni xisobga olish;
- xisob-kitob ishlarini olib borish.

Tekshirish uchun savollar

1. Umumiy ovk.atlani-sh korxonalarining zsosiy turlarini aytib bering.
2. Umumiy ovk.atlanzip **korxonalarini joylashtiriuda** nimalarga e'tibor beriladi?
3. Umumiy ovkatlanish **korxonalarining kaysi turlari** axoli yashaypigan — ma'muriy, **sanoat va dam olish zona**-lari xududida joy-lashishi kerak?
4. Restoranlari kaerlarga joylashtirish **maksadga muvofik?**
5. Restoranlar boshkarmasi apparatiga **kiradigan asosiy?** mansabdor shaxslarni aytib bering. •• ;
6. Shveysar va kiyim kabul kilib oluvchiga kandy talablar kuyiladi? . " - . S
7. Bosh ofitsiant va ofipiantlarga k,andy talablar kuyiladi? , 5
8. Restoran xizmatchilarining tashk,n kiyimi kandy buladi?;

MIJOZLARGA XIZMAT KILISH UCHUN TAYYORGARLIK BOSH OFITSIANTNING VAZIFALARI

Bosh ofitsiantning asosiy vazifasi iste'molchilar-ni kungilxushlik bilan kutib olish, restoranda bor xamma yaxshi imkoniyatlarni ularga karatish: lazatli taomlar, dilrabo musika, xushchakchaklik bilan vaktini utkazish. Shunday sharoit yaratish kerakki, bu yerdagilar uzlarini xuddi uyidagidek, erkin xis kilishsin. Bosh ofitsiantning vazifasi restoranning asosiy xizmat tarmogini boshkarishdir. Bosh ofitsiant restoranda mexmondustlik muxitini yaratishi kerak.

Bosh ofitsiant ertalab ishga kelibok, savdo xonalarining xolatini tekshiradi, zal, vestibyul, garderoab, bar, xojatxonalarini kuzdan kechiradi. Bino ichining yigish-tirilishi, tozaligiga e'tibor beradi. Mebellar, jixoz-lar, yoritish vositalarining butligi va sozligiga

nazar tashlaydi. Kamchiliklar va nosozliklar bulsa, ularni tezda sozlash choralari kuradi.

Bosh ofitsiant savdo xonalarini kurib chikkach, kechagi smenaning koldirgan yozuvlarini kuzdan kechiradi. Buyurtmalar bilan tanishadi, urganib chikadi va stol yasatish uchun tegishli topshirik beradi. Dasturxon yasatilishini, stol va servantlar tozaligini shaxsan uzi tekshi-radi. Uning vazifasiga taomnomada yozilgan ovkatlar xakikatan bor-yukligini tekshirish xam kiradi. Taom va maxsulotlar taomnomada yozilib, oshxonada bufetda bulma-sa, taomnomaga tuzatish kiritadi.

Xar kuni buladigan «besh dakika» lik yigilishda bosh ofitsiant ofitsiantlar brigadirlarining axbarotini eshitadi, ular zalda brigadaning necha a'zosi bor, kaysi stollar kaysi ofitsiantga tayinlanganligi xakida aytadi. Bosh ofitsiant xodimlarning tashki kiyofasini xam tekshiradi, ular xizmatga tayyor ekanligiga ishonch xosil kiladi. Sungra bosh ofitsiant kechagi kun ofitsiantlar tomonidan yul kuyilgan xatolarni muxokama kiladi, olingan tanbex va raxmatnomalar xasida gapiradi. Bu-gungi kun vazifalari, taom va maxsulotlarni realizatsiya kilish yullarini kursatadi. Bosh ofitsiant ishdagi uzgarishlar, restoran, trest buyicha e'lon kilingan buyruk, farmoyishlar xakida ofitsiant, bufetchi, shveytsar, far-rosh va boshkalarni xabardor kilishi kerak. «Besh dakika» lik yigilishga bosh ofitsiant restoranning sex, bulim va boshka xizmat boshliklarini chakiradi. Bu yigilish-larda restoran direktori yoki uning muovini katnashi-shi shart.

Bosh ofitsiant xamkasblariga nisbatan xushmuomala, gamxur, ochik kungilli, urtoklik munosabatida bulishi lozim.

Bosh ofitsiant brigadalarga tegishli joylarni bulib beradi, tantanali kabullar, banketlar. tuylarda xizmat kilish buyicha brigadir tayinlaydi.

Yukoridagi masalalar xal bulgandan keyin bosh ofitsiant uzining asosiy vazifasini bajarishga kirishadi. Bu vazifa mexmonlarni kutib olishdir. Bosh ofitsiant kup narsalarni xotirasida saklashi lozim, masalan, zal-da kancha bush joy bor? Ba'zi restoranlarda bush urinlar xakida vestibyulda yoritiladigan tablo buladi. Kup xol-larda restoranga keluvchilar tabloga nazar tashlab, bush joy borligini bilib, ichkariga kiraveradi. Bosh ofitsiant iste'molchilarni karshi olar ekan, salomlashadi, ularni ofitsiant ishtirokida utirishga taklif kiladi, mijoz uziga kulay joyga utirgach, taomlar assortimenta bilan tanishtiradi.

Butun ish kuni davomida bosh ofitsiant ovkatlar koidaga binoan berilayaptimi, idishlardan tugri foyda-lanilayaptimi, xisob-kitob tugri amalga oshirilayapti-mi — bularni nazorat kiladi. Bundan tashkari bosh ofitsiant mijozlarning taklif va e'tirozlariga kulok so-ladi, birinchi talabdayok, «muloxaza va takliflar daftari»ni iste'molchilarga olib chikib beradi.

Daftarga yozilgan muloxaza, taklif buyicha shu zaxo-tiyok, chora kuradi va restoran direktorini bu xakda xabardor kiladi. Restoran berkitilgach, bosh ofitsiant kun buyi tushgan pulni ofitsiantlar kassaga topshirdimi-yukmi, idish-anjomlarning topshirilganini tekshiradi. Xizmat kilgan xodimlar uz vaktida uylariga ketishlarini ta'minlaydi.

Restoranda tantanali kabullar, banket, tuylar utka-zilganda bosh ofitsiant zimmasiga katta mas'uliyat yuk-lanadi. Bunday x;ollarda beriladigan buyurtmalarni k,abul kilib

oladi, xizmat ustidan raxbarlikni amalga oshiradi.

Tantanali kabul, banket, tuylarda eng avvalo bosh ofitsiant tashkiliy masalalarni yigilish vakili bilan ke-lishib oladi. Rasmiy kabul buladigan bulsa, bosh ofitsiant odamlarni joy-joyiga utkazish rejasini tuzadi. Kabul yoki banket utkazish xakida kelishuv tuzilganligining rasmiylashgani avans berilishi (oldindan pul tulash) yoki kafolat xati berilishi bilan boshlanadi-

Agar xorijiy turistlar restoranda ovk^atlanadigan bulsa, bosh ofitsiant ular uchun taomnoma tuzishda katna-shadi. Bunda ularning umumiy didi va udumlari xisobga olinadi. Xorijiy turistlar xakida ofitsiantlar xam ma'lumotga ega bulishlari kerak.

Bosh ofitsiant vazifasiga ofitsiantlar tomonidan uz vaktida x, isob reestri tuzishni nazorat kilish xam kira-di. U kun buyi ofitsiantlar va boshka unga karashli xodimlar ishini kuzatadi, boshkaradi va nazorat kiladi, xizmat jarayonida sezilgan xato. kamchiliklarni barta-raf k, ilishni talab kiladi. Bosh ofitsiant muntazam ra-vishda, ofitsiantlarning iste'molchilar bilan xisob-ki-toblari kandy kilinganligini nazorat kilishi mumkin. Oshxona va bufetdan berilgan taomlarning tuda va tugri-ligi, idish-tovoklar saklanayotgan joyda ularning toza-ligi bosh ofitsiant nazoratida buladi.

Ammo bosh ofitsiant kuprok vaktini mijozlar kutishga sarflaydi. Zaldagi tartib kupincha mexmonlarning k, an-Day kutib olinishi, tegishli urinlarga utkazilishiga boglik. Shuning uchun bu vazifa bosh ofitsiantga yukla-tilgan. Zalga mijozlarni taklif kilganda eng avval ayol-larni olib boradi va utkazadi, ular kuliga taomnoma tutadi. Restoranga endigina odam kuyilgan yoki bush joy-lar bemaol bulgan xollarda joy tanlashda mijozdar .xoxishiga karaladi: osoyishtarak, burchakrokda utiriq durustmi, musikachilarga yakinrokmi yoki derazalar oldi-dami — bu mexmonlar xoxishi. Mijoz xoxdagan kulay joy bush bulmasa, boshka bush joyga utiriladi. Mijoz xoxlagan joyni boshka odamlar band kilib 'gurgan bulsa, ular rozi-ligi bilangina joy almashtirilishi mumkin. X, ali stol -usti yigishtirilib, dasturxon tuzalmagan joyni xam mi-jozga tavsiya kilish mumkin emas. Bordiyu, mijozlar ku-tamiz, shu stolga dasturxon solinsin, desalar — boshka ran. Restoranning doimiy mijozlari bulsa, xamma vakg utiradigan urinlariga utkaziladi. Iste'molchilar kulla-. rida gullar bilan kelsa, suv kuyilgan vaza keltiriladi. Agar stol oldindan band kilib kuyilgan bulsa, bosh ofitsiant bu xakda belgi kuyib kuyadi. Restoranda turli ma-salalar buyicha turlicha savollar tugilishi mumkin. Bosh ofitsiant mijozlarni tinglashi, anik, mukammal javob berishi kerak.

Xizmat jarayonida restoranda turli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday xolatlarda bosh ofitsiant uzini tuta bilishi va axlok-odob koidalariga rioya kilishi shart. Misol tarikasida kuyidagi vaziyatni kurishimiz mumkin.

Kechkurun xizmat boshlanishida ikkita mijoz — er-kak va ayol turt urinli stolga utkazildi. Ular bu yerga boshka xech kimni utkazmaslik kerakligini surashdi. Eshik ortida esa odamlar navbat kutib turibdi. Bosh ofitsiant nima kilishi kerak?

Lyuks toifadagi restoran va barlarda ikki urinli| stollar 50%, oliy toifadagi restoranlarda — 20 % ni,| birinchi toifadagi restoranlarda — 15 % ni tashkil kila-di. Bosh ofitsiant bu ikki mijozga ikki urinli stol tavsiya kilishi kerak. Agar zalda ikki kishilik bush stol bulmasa, ulardan ikkita stulni olib borib olti urinlik stol yasatish mumkin.

Bunday xarakat restoranga keluvchi-larning xo^hishini kuchaytiradi, restoranga keluvchilar bundan keyin xam kupayadi.

Bosh ofitsiant muntazam ravishda xizmat madaniyati-**ni** oshirish maksadida ofitsiantlar bilan mashgulot utkazib turadi. Mashgulot utkazishga tajribali mutaxassis {simqilarni xam jalb kilish mumkin.

Kulgina restoranlarda mexmon kutish buyicha ukish-dar tashkil kilingan, bu yerda yosh ofitsiantlar mustaxkam kasb kunikmalarini, uz vazifalarini vijdonan baja-rish usullarini urganadilar. Xizmat maxoratining asos-larini uzlashtiradilar. Ofitsiantda doimo idish-tovok, sochiklar, dasturxon bulishi lozim. Ofitsiant yaxshi shax-matchi tosh surgani kabi ishlashi kerak. Uzing butun xatti-xarakatlarini oldindan rejalab kuyishi uning ish unumini oshiradi. U psixolog bulishi kerak. Restoranga keluvchi fakat ovkat yeyish uchun kelganmi yoki xordik chi-karish uchunmi, bu yerdagi sharoitdan lazzatlanish uchun kelganmi, buni ofitsiant darx,ol sezib opishi kerak. Kishi birinchi marta kelgan bulsa, unga taom va ichim-liklar tanlashda yordam kilish lozym. Bu soxada ofitsiant uz ishining moxir ustasi bulishi kerak.

Restoranga keluvchilar xam bu yerdagi koidalarga rioya kilishlari darkor, bordiyu ular intizomni buzsa, boshka-lar dam olishiga xalal bersa, bosh ofitsiant udarga xizmat kilishni tuxtatib kuyishi mumkin.

Restoranda buladigan ba'zi anglashilmovchiliklarni xam bosh ofitsiant xal kiladi. Kuyidagi vaziyatni kuraylik:

Mijozlardan biri buyurtma kabul kilmaganligi uchun ofitsiantdan norozi buldi. Chuchvara yeyishni xoxdab kol-di. Chuchvara taomnomada bor, ammo tarkatishda tamom bulgan. Restoran yopilishiga xali 4 soat vakt bor. Bosh ofitsiant mijozga chuchvara tayyorlash uchun ancha vakt ta-lab kilinadi, shuning uchun boshka taom tavsiya kilamiz, deydi. Ammo mijoz norozi. Bunday xollarda bosh ofitsiant mijozdan kechirim suraydi. Bosh ofitsiant taom tay-yerlashni buyuradi. Mijoz kutmay ketib koladi. Ishlab chikarish kengashida vaktida taom tayyorlamagani uchun oshpaz mu^hokama kilinadi. Bosh ofitsiant xukuki:

1. Ofitsiant koidani buzsa, uni ishga kuymaslik, xatto ishdan chetlatish, bu xakda restoran raxbariyatiga ma'lum kilish.

2. Ovkat berilishida yoki shakllantirilishida koidaga rioya kilinmasa, taomnomani ishlab chikarishga kaytarish.

3. Nuksonli taomni, xatto mijoz e'tiroz bildirmasa xam, almashtirishni talab kilish.

4. Tajribali, malakali ofitsiantlgarni, yoshlarni tar-biyalashga jalb kilish. ukuv dasturlarining bajarilishini nazorat kilish.

5. Ofitsiantlar tanlab olishda komissiya tarkibida katnashish, shu tashkilotda ishlab ketishi mumkinligi xakida tavsiya berish.

6. Ofitsiantlarning darajasini oshirish xakida tav-syyanomalar berish.

7. Xizmatchilarga kachon ta'til berish navbatini bel-gilash.

OFITSIANTGA KUYILADIGAN TALABLAR

Restoranga xodimlar tanlashda, ofitsiantlikka xo^hish bildiruvchilar oldiga asosan

ikkita muxim talab kuyi-ladi; samimiylik, sofdillik va odamlarga mexr-xurmat. Bu ishga rayratli, xis kilish tuygusi kuchli, saranjom-. sarishta odamlarni topish kerak. Boshka tomondan, yetuk pazanda, taomlar, ichimliklar xususiyatini biladigan odamlargina ofitsiant bulib ishlashi mumkin. Yuzaki bilimga ishongan, restoran ishini yenpp-yelpi yodlab olib, xodimlar bulimida uzini bilimdon k^lib kursatadigan odamlar bu ishni eplay olmaydi. Restoran ishini san'at deb karab, joni-dili bilan ishlaydigan odamgina ofisiant bulishi mumkin. Dastlabki davrda u uncha tushun-masligi, lekin zexni, irodasi, mexnatsevarlik xislat-lari mujassamlashgan bulsagina, ofitsiant lavozimini bajarishi mumkin. Ofitsiant bilimdonlik bilan tegish-li taom va ichimliklarning sifati, ularning nafi xakida mijozlarga tushuntira bilishi kerak,

Ofitsiant ta'riflagan taomlar, ichimliklar xakikatga moe kelgandagina mijoz shu restoran tomon yana yulga tushadi.

Ofitsiant bosh ofitsiant bilan birgalikda zalning tulakonli sardori xisoblanadi. Unng kundalik xizma-ti odamlar bilan munosabatda bulish, shuning uchun u fakat xizmat kilish texnikasi bilimdoni bulib k;olmay, axlok-odob, ruxiyat talablarini xam bilishi lozim.

Xozirgi zamen ofitsianti kiyofasi saranjom-sarishta chiroyli kiyingan, raven kladam tashlaydigan, ortik-cha gapirmaydigan, epchil, xar kaday kelishmovchilik va-ziyatidan chikib ketadigan bulishi kerak. Zalda axlok-odob muxitini yaratgan ofitsiant mexr, xushmuomalalikni xamma narsadan yukori kuyishi shart.

Ofitsiant uz kadr-kimatini, insonlar uchun kilayot-gan mexnati yengil emasligini, kasb gururini xamma vakt xis kilishi kerak. Ofitsiant bilan iste'molchilar ora-sidagi munosabatda xar ikki tomonning samimiyligi talab kilinadi. Ayniksa, ofitsiantdan restoranda xush-chakchakdik, mexmondustlik kayfiyati talab kilinadi.

Ofitsiantga bulgan asosiy talablardan yana biri xizmat kilish usulining krida va texnikasini bilish, ama-liy ishda ularni kullay olishdir. Bulardan tashkari ofitsiant ozik-ovkat maxsulotlari tovarshunoslik asos-lari bilan tanish bulishi, zal jixozlanishini yaxshi bilishi, ishlatiladigan idish-tovoklar, anjomlarning kaerda foydalanishini amalda kullashi lozim.

Ofitsiantning xizmati ish jarayonida zarur buladi-gan narsalarni olishdan boshlanadi. Ulardan biri ofitsiant bilak uchiga solib yuradigan sochikchadir. Bu sochik ofitsiantning kuli kuyishiga va kiyim yengi ifloslanishiga yul kuymaydi. Ofitsiant xisob blankasini tayyorlaydi, u rakamlangan daftarcha shaklida buladi va xisobot uchun xujjat xisoblanadi. Kassa mashinasi kalitini tilxat orkali kassirdan oladi. Butilka ochkich, avtoruchka, dastrumol, agar zalda chekishga ruxsat bulsa, gugurt yoki zajigalka oladi — bular ofitsiant xizmatida foydalaniladi.

Uz ish faoliyatida ofitsiant kuyidagi tamoyillarga amal kilishi kerak: kasbiy burchni yukori darajada anglash, mexnatga ijodiy munosabatda bulish, urtoklarcha uzaro yordam muxiti. Bu tamoyillarni amalga oshira borishda xozirgi restoran ofitsiantlarining xukuk, va burchlari bor.

Ofitsiantning burchi, vazifalari:

- grafikda belgilangan vaktga albatta ishga yetib kelish;
- mijozlarga xizmat kilish tartibi buyicha bosh ofisiant kursatmalarini bajarish;

— mijozlarga xizmat qilish va uzini tuta bilish koidalariga rioya qilish, muloxazali, mexrli, e'tiborli bulish;

— taomnomada kursatilgan taom va ichimliklar mavjudligini, baxosini, ularni berish tartibi va ularni tayyorlash texnologiyasi asoslarini bilish;

- mijozlarga taom va ichimliklar tavsiya etish;

— ishda belgilangan shakldagi kiyimda yurish, u doimo ozoda, kurkam bulishi, poyafzallari toza tutilishi lozim;

— shaxsiy gigiena koidalariga rioya qilish;

— stollarni iste'molchilar kelishiga jiddiy tayyorlash, butun ish kuni davomida ish joyi, stollarni toza va tartibli tutish, dasturxonni uz vaktida tuzash, foydalanilgan idishlar, anjomlarni texnika koidalariga binoan yigishtirib olish;

— yordamchi stol va servantlarni ozoda saklash;

— xushmuomalalik bilan keluvchilarni kutib olish, zalga boshlab kirib utkazish, taomnoma tavsiya qilish, xizmat qilish texnikasi koidalariga muvofik tezlik bilan buyurtmalarni bajarishga kirishish;

— singan, yorilgan, darz ketgan yoki dogi bor idish-tovok, va boshka anjomlardan foydalanishga yul kuyilmaydi;

— kabullarda, banketlarda xizmat qilish tartibi va texnikasini bilish, mijozlarning muloxaza va takliflarini bosh ofitsiantga yetkazish.

Xorijiy mamlakat turistlariga xizmat kilayotgan ofitsiantlar zarur darajada chet tillardan birini bilishlari shart.

Ofitsiant anik va turli ishlash uchun kassa xujjatlarini, xisob-kitob varakasini, restrlarni tuldirish koidalariga tula rioya kilishi kerak.

Ish jarayonida ofitsiant kuyidagilarni kilmasligi lozim:

— kayd kilinmagan xisob-kitob varakalari blankalaridan foydalanish, shuningdek uz blankasini boshka ofitsiantga berish;

— taomlar va bufet maxsulotlari nomini kursatmasdan blankalar tuldirish;

— xisob-kitob varakasida, nusxasida, kvitansiya daftarchasining yirtib olingandan keyin kolgan kismida tuzatish, uzgartirish kilish.

Ofitsiantga mutlako takidlanadi:

— bosh ofitsiant ruxsatisiz mijozlarni stolga taklif kilish va uzicha boshka stolga utkazish;

— tayyorlanmagan stolga mijozlarni utkazish;

— mijozlar shikoyati va e'tirozlarini bosh ofitsiantsiz yoki direksiya xodimisiz muxokama kilish;

— zalda chekish, utirish, ovkat yeyish, kattik gapirish, shuningdek servant, devorlar va boshkalarga suyanish;

— restoran raxbariyatisiz, bosh ofitsiantsiz uzicha «stol band» yozuvini stolga kuyish;

— oshpazdan sifati yomon, yaxshi shakllanmagan taom olish;

— belgilangan me'yordan ortik spirtli ichimliklar berish;

— banket, tuy va boshka tadbirlar uchun bosh ofitsiantsiz buyurtmalar kabul kilish;

— xizmat qilish jarayonida brigadir yoki bosh ofitsiant ruxsatisiz uzok muddatga

ketib kolish;

— mijozlardan xisob-kitob varakasida kursatilgandan tashkari pul olish.

Ofitsiantning ish texnikasi tizimiga xizmat kilishni tashkil kilish soxasi, stol yasatish, taom, ichimliklar keltirib berish va boshkalar kiradi.

Kasb maxrratini xisobga olgan xolda ofitsiantlarga V—IV—III daraja (razryad) beriladi. Bu ixtisosligiga karab dal kilinadi. Ixtisos xarakteristikasi ikki bulimdan iborat buladi: «Ish buyicha xarakteristika» va «Bilishi kerak».

V razryadli ofitsiant

Ish buyicha xarakteristika:

- stol yasatishning turli xillari, jumladan termik;
- stol, zal, peshzallarni jixozlash uchun gullardan kompozitsiya;
- nonushta, tushlik, kechki ovkat, banketlar uchun tuziladigan taomnomada idishlar, anjomlar, sochik va boshkalar mikdorini xisobga olish;
- turli usullar bilan taom va ichimliklar berish;
- mijozlar ishtirokida taomlar tayyorlash, shakllantirish va narsalarga bulish;
- turli xil banketlarni tashkil kilish va utkazish;
- xorijiy turistlarga xizmatni tashkil kilish;
- «Shved stoli» va boshka mijozlarga xizmat kilishning progressiv shakllarini tashkil kilish;
- mijozlar uchun maksimum kulaylik yaratish.

Kilishi kerak:

- turli idish-tovoklar, anjomlar, oshxonadagi latta buyumlari, ularni xisobga olish va saklash;
- stol yasatish koidalari va turlari;
- guldasta shakllantirish koidalari;
- taomnomaning vazifasi, turlari va tuzilishi tamoyillari;
- ozik-ovkat tovarlari xakida kiska ma'lumot;
- oshpaz, ovkat xarakteristikasi, taom va ichimliklar berish koidasi va uziga xos xususiyati;
- fiziologiya va sanitariya asoslari;
- psixologiya asoslari va professional etika;
- mijozlarga xizmat kilish tartibi va banket turlari;
- mijozlarga xizmat kilishning ilgor shakllari;
- madaniy xizmat kursatkichlari va ularga baxo berish usuli;
- xorijiy turistlarga xizmat kilishni tashkil kilish.

IV razryadli ofitsiant

Ish buyicha xarakteristika:

- stol yasatishning xillari;
- stollarni yasatish uchun gullardan kompozitsiya;
- nonushta, tushlik, kechki ovkat, banket uchun taomnoma tuzish, zarur idish-tovoklar, anjom, oshxona buyumlari xisobini olish;
- turli usullar bilan taom va ichimliklar berish;

- turli xil banketlarga xizmat qilish;
- xorijiy turistlarga xizmat qilish;
- mijozlar bilan zaruriy muomalada bulish;
- foydalanilgan idish va anjomlarni yirishtirib olish.

Bilishi kerak:

- idish-tovoklar, anjomlar, oshxona buyumlarining xamma xillarini xisobga olish va saklash tartibi;
- stol yasatishning koida va turlari;
- guldastalar kuyish tartibi;
- taomnoma tuzish turlari va tamoyillari;
- ozik-ovkat maxsulotlari xakida kiska ma'lumot;
- taom va ichimliklarni berish koidalari, xususiyati, ovkat xarakteristikasi;
- fiziologiya va sanitariya asoslari;
- professional etika;
- ofitsiant ish joyini tashkil qilish;
- ichimliklar berishning kiskacha xarakteristikasi va xususiyati;
- tantanalarda xizmat qilish tartibi va banketlar turi;
- xizmat qilishning ilgor shakli.

III razryadli ofitsiant

Ish buyicha xarakteristika:

- stol yasatishning xillari;
- stol yasatish uchun gullardan kompozitsiya;
- nonushta, tushlik, kechki ovkat, banketlar uchun tuziladigan taomnomada idishlar, anjomlar, sochik va boshkalar mikdorini xisobga olish;
- turli usullar bilan taom va ichimliklar berish;
- turli xil norasmiy banketlarda xizmat qilish;
- xorijiy turistlarga xizmat qilish;
- mijozlar bilan zaruriy munosabatda bulish;
- foydalanilgan idish-tovok, anjomlarni yigishtirib olish;
- nazorat-kassa mashinasida ishlash.

Bilishi kerak:

- idish-tovoklar, anjomlar, oshxona buyumlarining xamma xillarini xisobga olish va saklash tartibi;
- stol yasatishning krida va tartiblari, gullar kuyish
- taomnoma tuzish tartibi, taom va ichimliklarning yozilishi;
 - ofitsiant ish joyining tashkil kilinishiga talablar;
 - ozik-ovkat maxsulotlari va ichimliklar xakida kiska ma'lumot;
 - ovkat xarakteristikasi va taom, ichimliklar berish tartibi;
 - professional etika **kridalari**;
 - banket turlari, xizmat qilishning ilgor shakli;
 - ofitsiantning tashki kiyofasiga talablar;
- mijozlarning restoranda utirish odobi.

- Ofitsiant **kobyushyatli** kasb egasi, yukori darajali mutaxassis bulishi kerak. Mutaxassis shaxs, kobilyatli ofitsiant kuyidagi psixologik sifatlarga ega bulishi lozim:
 - xushmuomalalik;
 - kishilar bilan til topishib ketadigan;
 - chidamli, tokatli, ruxan bardam, sipo, uzini kulga oladigan;
 - ziyrak, yaxshi xotira egasi;
 - boshka odamlar kayfiyatini sezadigan;
 - didli, anik nutkli, suzlarni tushunarli aytadigan;
 - shakl, rang, xajmni sezadigan;
 - dikdatni uziga va boshkalarga jalb kila oladigan;
 - xisob-kitobni tez va anik bajaradigan;
- odamlar xususiyati farkiga boradigan.

Ofitsiant yaxshi psixolog bulishi kerak, chunki restoranga keluvchilarning kayfiyatini tez tushunishi, ularga munosib muomalada bulishi, tegishli xizmatni boshlashi kerak uzini tugri anglashi, uz xissiyotini ongli boshkarishi lozim, ish buyicha uz xamkasblarini yaxshi bilib bir-birini tushungan xolda urtoklarcha munosabatda bulishi kerak.

•

Xar bir mijozga nisbatan ofitsiant mexmondustlik, ziyraklik, sipo, boodablikni uzida mujassam kilgan bulishi shart. Agar mijozlar biror masala buyicha narigi stoldagi ofitsiantga murojaat kilib kolsalar, ofitsiant suzsiz kulok solishi, imkoniyati bulsa bajarishi, agar imkoniyati bulmasa, usha mijozga xizmat kilayotgan ofitsiantni chakirib masalani xal kilishi zarur.

Bordiyu, mijoz biron-bir narsadan norozi bulib, shovkin-suron kutarsa, ofitsiant muloyimlik bilan, gunoxkor bulmasa xam, kechirim surab tinchitsin. Ofitsiant shunday ishlashi kerakki, zaldagilarning dikkatini uziga jalb kilmasin, mijozlar suxbatiga xalakit bermasin, idish-tovokdarni takir-tukur kilmasin, xamkasblarini bakirib chairmasin, mijozlarga sekin, yokimli ovozdav javob kilsin.

Ofitsiantning sherigi kerak bulgan idishni ishlatib kuygan bulsa, ofitsiant nima kilishi kerak, zalda idishimni topib ber, deb janjallashishi kerakmi? Yuk, boshka idish olib kelib xizmatni davom ettiraverish zarur.

Ofitsiant mijozlar bilan munosabatda juda xushmuomalali bulishi talab kilinadi biron narsa olib kelib kuyganda «marxamat» deyishi, «kechirasiz, taom bersam buladimi» kabi muomala kilishi. Agar mijoz koshik, vilka, salfetka va boshkalardan birontasini tushirib yuborsa, ofitsiant oldin urniga tozasini olib kelib kuyadi va sungra pastga tushgan buyumni oladi. Polga tushgan narsani zinxor mijoz olmasin. Toza narsalarni ofitsiant patnis yoki tarelkada olib kelib berishi lozim. Ofitsiant narsalarni mijozga yakin turgan kuli bilan uzatadi. Uzbek odati buyicha xamma vakt ung kul bilan uzatish lozim va bu milliy an'anamiz talablariga mosdir.

Ofitsiantning shaxsiy gigienasi.

Ofitsiantning kasbi artist faoliyatiga uxshab ketadi. Artistlar tomoshabinlar bilan boglanganidek, ofitsiant xam zaldagi mijozlar bilan uzluksiz alokada buladi. Ofitsiant zalda psixologik muxit yaratadi, ularning xarakatini, muomalasini kuzatayotgan

xurandalarda bu tashkilot xakida ijobiy fikr tugiladi.

Ofitsiantning tashki kurinishiga, yurish-turishiga, uzini tuta bilishiga juda kup narsa boglik. Xushmuomalalik ofitsiantning yuzidan, chexrasidan kurinib turishi kerak, buyi-basti urtacha, sochi yaxshi taralgan, chiroyli kad-komat restoran zalining xusniga xusn kushadi. Bu tabiat in'om etgan guzallik, yaxshi eshitish kobiliyati, dona-dona suz ifodasi — bularning xammasi restoranga tashrif buyuruvchilarda ofitsiantga nisbatan ijobiy munosabat uygotadi.

Ofitsiant xizmatining uziga xos xususiyati shundan iboratki, u mijozlarga taom tashiydi, kerak bulsa stol atrofida aylanib xurandalarga iarvona buladi. Bu yerda xam albatta u sanitariya-gigiena koidalariga rioya kilishi lozim;

1. Ofitsiantning sochi ajib, gayriodatiy bulmasligi, sochlar kuz ustiga tushmasligi, ish jarayonida sochlar-ni tartibga solish, tarash tavsiya etilmaydi. chunki soch taomga tushishi mumkin.

2. Ogizdan noxush xid tarkal maslit uchun maxsus pas-'| ta bilan oshzni yuvish, chayish lozim. \ar kuni kechki] ovkatdan sung va ertalab ish boshlashdan oldin tishni^ yuvib tozalash kerak.

3. Ishga tushishdan oldin dush kabul kilish, erkaklar, dar kuni sokollarini olishlari zarur.

4. Ael ofitsiantlarga ishga chikish oldidan kosmetik; vositalardan xaddan ortik foydalanish, kuchli xidli atir sepish, yirik takinchoklar takish tavsiya etilmaydi.

5. Ishga toza kiyimda kelish kerak, xizmatga kiri-: shish oldidan dushga tushish, kullarni sovun bilan toza-lab yuvish zarur.

6. Ish jarayonida ora-orada kulini yuvib turish, elektr sochik bilan kuritish, agar u bulmasa bir marta foydala-niladigan sochikka artish lozim.

7- Restoran kiyimida ofitsiant tashkariga chikishi, boshka biron ish bilan band bulishi mumkin emas.

8. Ofitsiant kup xarakatlarni mijozlar oldida, ular kuz-ungida bajaradi, shuning uchun kullarida xam xech k,an-day nukson bulmasligi lozim, masalan tirnoklar olin-gan bulishi, kulda yara alomatlari bulmasligi, biror bar-mok bint bilan boglanmagan bulishi kerak.

Umumiy ovkatlanish xodimlarining xammasi tibbiy kurikdan utgan bulishi shart. Bundan maksad kasallik taom orkali boshk,alarga yukmasin, xam restoran xodimlari, xam restoranga keluvchilar soglom bulsin.

XIZMAT KILUVCHI XODIMLARNING KIYIM SHAKLLARI

Odamlar mexmondorchilikka borganlarida mezbon yaxshi kiyingan xolda, xushchakchaklik bilan kutib olsa, kanday yaxshi, mexmonlar bexad xursand buladi. Ofitsiant restoran zalining mezboni, uning yaxshi kiyinishi restoran-da kayfiyatni kutaradi.

^amma xam yaxshi kiyinishni yaxshi kuradi. Uyda, kuchada va ishda xamma vakt toza, yarashadigan kiyim kiyish kerak. Eshakka tuk.im, odamga libos deb bekorga aytmaganlar.

Ofitsiant restoran zalining soxibi, unga xam chiroy-li> xam kulay shakldagi kiyim

kerak. U kuni bilan ish-laydi, uning xarakati kiyimiga moe tushishi kerak. Fa-k;at bugina emas, ofitsiantning butun borligi restoran-ni bezab turishi darkor.

X^ar bir restoranning uziga xos kiyimi bulishi lozim. Ular xamma uchun bir tusda, bir xil bichimda buladi. Ammo bosh ofitsiant kiyimi boshka ofitsiantlarniki-dan nimasi bilandir ajralib turishi kerak. Ba'zi bosh ofitsiant kukragida vizit kartochkasi buladi. Ofitsiant kiyimlari mavsumga karab yangilanib turilishi mumkin.

Restoran xodimlari kiyimlari korxonaning toifa-siga boglik. Lyuks va oliy toifadagi restoran xodimlari uchun kiyim sifati yukrri matolardan tikiladi. Boshk,a restoranlar uchun arzon materiallardan tayyorlanadi.

Lyuks va oliy toifadagi restoranlar xodimlari uchun tasdiklangan me'yoriy xujjatlar asosida quyidagilar beriladi;

— erkak bosh ofitsiantlarga: jun kostyum, kuylak, galstuk; ayollarga—jun kostyum, bluzka, galstuk.

— erkak ofitsiantga—jun kostyum, kuylak, galstuk; ayollarga—yarimjun kuylak, yozgi kuylak.

Restoranlarning boshka toifadagi xodimlariga:

— bosh ofitsiant, erkak—yarim jun kostyum, kuylak, galstuk; ayollarga—yarim jun kostyum, ok, bluzka, galstuk.

— erkak ofitsiantga— yarim jun kostyum, ok kuylak, galstuk; ayollarga—yarim jun kuylak, yozgi kuylak.

Bulardan tashkari yoz paytlari erkak bosh ofitsiantga bitta yozlik kostyum, ofitsiantlarga ikkitadan. Bosh ofisiant ayolga va ofitsiant ayollarga kushimcha bittadan yozgi kuylak beriladi.

Oliy toifa va xorijiy turistlarga xizmat kiladigan restoranlar bosh ofitsiantlari va ofitsiantlariga bir shakldagi poyafzal beriladi.

Bir xil shakldagi kiyimlarni bosh ofitsiantlarga ofitsiantlarga, zalda ishlaydigan bufetchilarga, shveysar, garderoibchi, farrosh, zal navbatchisi, restoran va kafe xojatxonalarida xizmat kilayotganlarga beriladi.

Restoran va kafelarda kipim va poyafzallar berilish me'yorl

Kiyimv	a	poyafzallar	.Soni,	
Erkakyaar uchun Ayollar uchun	nomi	Jun kostyum	dona 1	Knyiling muddati, oy
				24 12
		Kuylak, ok	2	
		Galstuk	1	12
		Kitel	1	24
		Yarimboginka,	1	12

	kora	1 1	12 12
	Yarimbotinka, rangli Yarim jun	1 1	12 12
	kuylak Kuylak, yozgi Tufli, kora , Tufli, rangli	1	12

Restoran xodimlari kiyimlarini xar xil modalarda, ranglarda tikilishiga karamay ulchami xodimga tugri ke-lishi, zamonaviy, chiroyli, ishda kiyishda ixcham, yaxshi tozalanadigan, yuviladigan bulishi shart.

Poyafzal xam xuddi shunday bulishi kerak.

Restoran xodimlari kiyim va poyafzallarni doimo ozoda tutishi lozim. Kostyum va k^ylaklarda dog bulmasli-gi, dazmollangan bulishi lozim. Poyafzal xam burishib-tirishib kolmagan, tozalangan bulishi talab kilinadi.

Ofitsiantga beriladigan kiyim va poyafzallar fa-^at xizmat davridagina kiyiladi. Restorandan tashk^ari-da kiyishga ruxsat berilmaydi.

Agar kiyimlar saklanayotgan joyida yukolib k.olsa, bunda ofitsiantning aybi bulmasa, ma'muriyat mas'-udiyatni uz zimmasiga oladi. Ofitsiantga yangi kiyim va poyafzal beriladi.

Kiyim yukolishi yoki ishdan chikishida ofitsiant ayb-dor bulsa, foydalanganligi xisobga olingan xolda, ofi-siantdan kiyim baxosi undirib olinadi va yangisi beriladi.

Agar kiyim muddatiga kadar yaroksiz xolga kelib k;ol-sa, vaktida ishdan chikkanlik sababi kursatilib, dalo-latnoma tuziladi- Ofitsiant sababchi bulsa, kiyim uning xisobidan buladi. Ikkinchi marta berilgan kiyim muddati shu berilgan kundan xisoblanadi.

Agar ofitsiantlar pensiyaga chikish munosabati bilan ishdan bushasa, nogironlik, bemorlik sabab bulsa yoki armiyaga chakirilsa, kiskartirishga tushsa, shu korxonada boshka ishga utsa, ma'muriyat karoriga binoan kiyim, poyafzallar kaytarib olinmaydi.

Ofitsiant mexnat intizomini buzganligi uchun yoki uz xoxishi bilan ishdan bushasa, boshka soxaga ishga utib ke-tadigan bulsa, kiyimlar va poyafzallar kiyilgan muddati chikarib tashlanib, kolgan baxosi undirib olinadi. Kiyimlar muddati tugagach, ofitsiantning mulkiga aylanadi.

Kupgina restoranlarda milliy ananalar e'tiborga oli-nib, ofitsiantlar milliy kiyimlarda xizmat kiladilar.

OFITSIANTLAR MeXNATINI TASHKIL KILISH USULLARI, IShGA ChIKISH GRAFIGI

Restoranlarda ofitsiantlar mexnatini tashkil kilish-ning ikki usuli bor: yakka xolda va zveno buyicha.

Yakka d;ol usul. Bu usulning moxiyati shundan iboratki, xar bir Ofitsiantga restoranning tegishli kismidan 2—3 ta turt urinli stol ajratib beriladi. Bu belgilangan

joyda xamma ishlarni bitta ofitsiantning uzi bajaradi.

Ofitsiant mijozlarni tuzalgan stol atrofiga utkaza-di, taomnoma takdim etadi, taomlar, ichimliklar tanlashda yordamlashadi, buyurtma kabul kiladi, uni ishlab chika-rishga va bufetga topshiradi, dasturxonda kamchilik bulsa,yana yasatadi, oshxona va bufetdan maxsulotlar olib keladi, foydalanilgan idish-tovok va anjomlarni uz vakti-da yigishtirib oladi, mijozlarga chek yozib beradi, ular bilan xisob-kitob kiladi, mexmonlar turib ketgach, idish-tovok va boshka narsalarning xammasini yigishtirib oladi, yangi toza dasturxon solib, navbatdagi mijozlar-ni kutadi.

Birok xizmat kilishning bu usuli kator kamchilik-lardan xoli emas. Ofitsiant muntazam ravishda zalni tashlab chikib turadi, chek yozdiradi, buyurtma beradi, taom va ichimliklar olishga chikib ketadi, idish-tovoklar olishga boradi va xokazo. Mijozlarda ofitsiant guyo zalni tashlab, uz ishi bilan yuribdi, ularga e'tibori kam, degan fikr tugiladi. Ofitsiant mijozlarga tez-tez kuri-nib turishi kerak, chunki ular biror narsa buyurishi, axborot olishi, tezrok xisob-kitob kilishni talab kilib kolishi mumkin. Mijozlar ofitsiantni chakirtirib yoki uzlari orkasidan izlab borib yurmasin. Shuning uchun ofitsiant xar doim zalda bulishi lozim.

Zveno yoki brigada usuli. Bu usul ancha kulay, chunki xizmat jarayonini ancha tezlashtiradi, mijozlar tomoni-dan ofitsiantlarga e'tirozlar bildirilmaydi, ofitsiant brigada yoki zveno tarkibiga kiradi. Bu guruxni bosh ofitsiant yoki ofitsiantlar brigadiri boshkaradi. Eng murakkab ishlarni yukori malakali ofitsiantlar baja-radi. Brigadir buyurtma kabul kiladi, xisob-kitobni amalga oshiradi, doimo zalda buladi. Brigadaning kol-gan a'zolari zalga taom, ichimliklar, bufet maxsulotla-ri olib keladi, ishlatilgan idish-tovoklarni, anjomlarni Yigishtiradi va xokazo.

Odatda zveno xar xil toifadagi 3—4 ofitsiantdan iborat buladi. Brigadirlikka eng tajribali beshinchi razryadli malakali ofitsiant tanlanadi, ikkita turtin-chi razryadli, bitta birinchi razryadli ofitsiant kiradi. "R/tinchi razryadli ofitsiantdan bittasi, agar zaruriyat tugilib kolsa, brigadirlik vazifasini bajaradi.

Restorandagi xizmat jarayonini shartli ravishda ikki kismga bulish mumkin. **Birinchi ^ism** -- turridan-tugri iste'molchilar bilan munosabatda bulish, bu vazifani eng .yukori malakali ofitsiantlar bajaradi. **Ikkinchn sism** — xizmat kilishni boshlashga tayyorgarlik kurish. Bunda ayrim ishlar oldindan belgilab olinadi, mijoz-larning okimiga karab brigada tizimi rejalashtirila-di. Shunday kilib, stol yasatish, zalga maxsulotlar kel-tirish, idish-tovokdar tayyorlashni boshka ofitsiantlarga topshirish mumkin. Bu vaktda boshka ofitsiantlar bu-yurtmalar kabul kiladi, taom va ichimliklarni stolra kuyadi. Ular faoliyati bosh ofitsiant tomonidan kat'iy belgilanadi.

Ofitsiantlar brigadasi tizimi restoranga keluvchi odamlar okimiga karab belgilanadi. Shu narsaga e'tibor berish kerakki, brigadir doimo zalda bulsin. Zveno a'zolari buyurtmalar kabul kiladi: bitta ofitsiant bufetdan maxsulot va sovuk gazaklar oladi, boshk,asi oshxonadan issik. taomlar olib keladi. Maxsulotlar olish uchun brigadir yoki ofitsiantlardan biri chek yozdiradi. Boshka may-da-chuyda ishlar — idish-tovok,, anjomlarni yigishtirish, stol ustini tozalash, artish -- uchinchi razryadli ofitsiant yoki

urganuvchi ofitsiantga topshiriladi. Brigadir schyot tayyorlab mijozlar bilan xisob-kitob kiladi.

Ofitsiantlar brigadasida uch kishi bulganda xizmat kilish jarayoni kuyidagicha buladi:

Birinchi ofitsiant chek yozdirib keladi, taom tarka-tish bulimidan sovuk gazaklar oladi, zalga olib kiradi, brigadir bilan birgalikda xizmat kila boshlaydi. **Foy-**dalanilgan idish-tovoklarni yigishtirib olib, yuvish xonasiga topshiradi.

Ikkinchi ofitsiant chek yozdiradi, birinchi taomni oladi, tarelkalarni kizdiradi, sung zalga olib kiradi, idish-larga ovkat suzishda brigadirga yordam beradi va sung mijozlarga ovkat tortadi. Uning uzi stollardagi foy-dalanilgan idish-tovoklarni yigishtirib olib, yuvish bulimiga topshiradi, shirinliklar olishga tayyorgarlik kuradi.

Undan keyin xizmat jarayoni kuyidagicha davom etadi. Birinchi ofitsiant chek yozdiradi, ikkinchi issik taomni oladi va tarelkalarni kizdiradi, zalga olib kiradi, brigadirga yordam kiladi. Bushagan idishlarni yigishtirib, yuvish xonasiga topshiradi. Bu ishlarning xammasidan keyin issik ovkat keltirishga tayyorlanadi.

Ikkinchi ofitsiant chek yozdiradi, shirinliklar ola~ di, zalga olib borib, mijozlar oldiga kuyadi, sung ishla-tilgan idish-tovok va boshka anjomlarni yigishtirib, idish yuvadigan xonaga olib keladi.

Birinchi ofitsiant chek yozdiradi, kofe yoki choy oladi, zalga olib kiradi, idishlarga kuyib, mijozlar oldiga kuyadi, foydalanilgan idish-tovoklarni yigishtirib, yuvish bulimiga topshiradi.

\ar kuni xar bir zveno urtacha 8—10 turturiili stol-ga xizmat kiladi. Stollarni zvenolarga taksimlashda ular-ning uzok-yakinligini xisobga olish kerak.

Zveno uchastkalari vakti-vakti bilan almashtirilib turiladi.

Yakka xizmat kilish usuliga yoki xar bitta ofitsiant uz yegiga uzi kovurilganga Karaganda brigadada ish unumi 2,5— 3 barobar ortik buladi.

Mexnat taksimoti nuktai nazaridan brigada usuli xizmat vaktini kiskartiradi, mijozlar vaktini tejay-di, umuman olganda xizmat madaniyatini yukori kutaradi.

Xizmatning zveno usuli ofitsiant mexnat sharoitini yaxshilash imkonini tugdiradi, ish uchun kulay grafik tuziladi, 7 soatlik ish kuni (bayram va dam olishdan oldinga kunlari 6 soatdan) vujudga keladi.

Ofitsiantlarning ish tartibi restoranning ishlab chikarish, savdo faoliyatini xisobga olgan xolda belgila-nadi. U kuyidagicha buladi:

1. Zveno usuli 32—40 uringa 3—4 ofitsiant.
2. Yakka xod usuli 10—12 uringa 1 ofitsiant.
3. S'ezd, konferensiya katnashchilariga xizmat kilish 12—14 uringa 1 ofitsiant.
4. Banket xizmati, kisman — 10—12 uringa 1 ofitsiant.
5. Banket, ofitsiantlar t^la xizmat kiladi— 6—8 uringa 2 ofitsiant.
6. Banket-furshet — 20—30 taklif kilinganga 1 ofisiant.
7. Banket kokteyl — 10—15 taklif kilinganga 1 ofisiant.

Ikki brigadalik grafikda ishga chikishda ofitsiantlar shtatini xodimlar mikdori va malakasi buyicha ikki brigadaga bulinadi. ^ar bir brigada kun aro ikki sme-nadan 11 soat

Grafika xar bir xodimning ish boshlashi va tugalla-shi, shuningdek tanaffus payti kursatiladi. Grafik tu-zishda ish boshlashga tayyorgarlik va ishni yakunlashga keta-digan vakt xam yordamchi vakt sifatida xisobga olinishi kerak.

Ofitsiantning asosiy vakti quyidagicha bulinadi:

— mijozlardan buyurtma ^abul k,ilish va xisob-kitob (keluvchilarni kutib olish,taom tanlashda yordam berish, buyurtmalarni yozish, chek yozdirish, ^isob-kitob);

— kassa ishi bilan band bulish vakti;

— oshxona va bufetdan taom, maxsulotlar olish;

— ovkatlarni tarkatish, bir idishdan ikkinchisiga ku-yish, shishalarni ochish, kadaxdarga kuyib berish va xokazo.

Tayyorlanish va yakunlash vakti (yordamchi vakt) xizmat jarayonida stolni yasatish, ishlatilgan idish-tovoklarni yigishtirib olib, yuvish xonasiga topshirish, tozalari-ni olish va xokazo.

Ofitsiantga boglik bulmagan vakt yukotish xam bor:

zalda odamlarning barobar, bir me'yorda joylanmaganli-gi, ovkat tarkatish, bufet, kassa, idishlar tarkatiladi-gan xonaning muntazam ishlamasligi natijasida ofitsiant bekor turib kolishi mumkin. Ofitsiant aybi bilan dam vakt bekorga utishi mumkin. Buni albatta bosh ofisiant nazorat kiladi.

ReSTORAN IChINI TOZALASH.

ZALGA MeBeLLAR **urnatish**(ar kuni ertalab yoki ishdan sung restoran ichki kis-mini sanitariya-gigiena tozalovi utkaziladi. Kup xollarda asosiy yigishtirish-tozalash ertalab buladi. Restoran ochilganiga kadar 1—2 soat oldin xonalar, sexlar, zallar xammasi tozalanib bulishi kerak. Yigishtiruvchi farroshlar brigadasi changsurgich va boshka mashinalarda ish olib boradi. Karniz, devor, rom, jixoz, isitish ba~ tareyalari, panjaralar — xona ichida nimaiki bulsa, xam-masini artadi, changini ketkazadi. Parket pollar, iolga solingan gilamlar tozalanadi, pollar yuviladi, artidadi.

• Odatda zallarni tozalash quyidagicha buladi: eng av-val mebellardan, deraza romlari va tokchalardan, anjom-lardan changlar artiladi. Xul latta bilan pol artiladi.

Oodin changyutgich ishlatib, sungra changlarni artsa xam buladi.

Parket va linoleumli pollarni elektropolotyor bilan tozalasa ^<am buladi. Bular bir yoki ikki chutkali buladi. XorijiY mashinalar polni xam xullab artadi, xam kuritib ketadi. Mebel va servantlar xar kuni tozalanadi. Charm koplangan stullar sovun bilan yuviladi, mato koplangan stullar changyutgich bilan tozalanadi. Stullar-ning oyokdari artidadi-Servantlarning ichki tomoni, kutilari nam latta bilan artiladi.

Muzlatgichlar aloxida e'tibor bilan tozalanishi talab kilinadi.

Muzlatgichlar ichidan noxush xid kelmasligi uchun xaf-

tada eng kami ikki marta artib turish kerak. Bir litr suvga 1 g sirka kushib, xud latta bilan artiladi, sung kuruk latta bilan yana tozalanadi. Muzlatgichlar eshigi

jips yopilishi axamiyatlidir.

Restoran xonalarida ^avo sovutadigan apiaratlar (konditsioner) bulishi kerak. Kdsh

paytlarida xavo maxsus kurilmalar orkali utadi, changdan tozalanadi, zal xaro-^ati 16—18°S buladi. \a'o namligi xam tegishli me'yorda saklanadi. Issik kunlari tashkaridagi xavo changdan tozalanadi, ichkari 10—11°S gacha sal^inlashadi.

Restoran ozodaligi restoran xodimlariga, eng avvalo farroshlarga boglik. Restoran ma'muriyatining buyruri bilan tozalash ishlariga ofitsiantlar va boshka xodimlar xam jadb kilinishi mumkin.

Kun davomida farroshlar restoranda mayda-chuyda ishlarni bajarishi mumkin.

Restoranni yigishtirish-tozalash tugagandan **sung** bosh ofitsiant tekshirib kuradi, stol va boshka narsalarni joy-joyiga kuyish uchun ruxsat beradi.

Mebellar restoranning eng kurkam elementa. Ular-ning shakli, kurinishi, rangi restoranning manzarali bezagiga moe tushishi lozim. Restoranda foydalaniladi-gan mebellarga yuksak estetik talablar kuyiladi. U yengil, mustaxkam, chiroyli, kulay, sanitariya jixatdan tozalashga moyil bulishi kerak.

Restoranga mebellarni did bilan urnatish xam uz yuli-ga bir san'atdir, mebellar joy-joyiga okilona urna-tilsa, xizmat kilish xam oson buladi. Zal maydonida odam-lar uzlarini erkin sezadi.

Restoranda bar stollari urnatiladigan balsa, u zal-ning 10% atrofidagi maydonini band kilishi mumkin. Zalning umumiy xususiyatidan kelib chikib (eshiklar, us-tunlar, romlar, lyustra joylanishi, xizmat turlari), zalga stol-stullar kuyiladi. Stollarni kiriladigan eshik bilan bir katorga kuyish tavsiya etilmaydi. Stollarning xar bir katori tugri chizi^ buyicha joylanishi kerak.

Restoran ichi tugri burchakli yoki kvadrat shaklida balsa, zalga kirishda ikki metrdan kam bulmagan ikkpta eshik bulishi kerak.

Turli sigimdag i stollarga urinlarning tugri kelishi

Stollar sigimi	Restoranning toifasi buyicha urinlar		
Ikki urinli	Lyuks 50	Oliy	Birinchi 10
Turt urinli	30 20	20 40 40	45 . 45
Olti urinli			

Restoranlarda stollar geometrik tarzda va erkin usulda kuyiladi.

Geometrik usul ~ stollar orasidagi utish yullari devorga nisbatan narallel bulishi kerak. Masalan, kuyi-dagicha; markaziy zona keng utish yuli bilan ajratiladi. Utiladigan yul koldirilib, stollar guru^gurud; kilib kuyiladi, bir tekis reja kilinadi. Geometrik usulga yana shu narsa xarakterliki, xizmatdagi yordamchi stollar, ser-vantlar xam ularga moe xolda joylanadi.

Erkin usulda stollar devorga yakin kuyiladi, yordamchi stollar eshik ya^inida, ustunlar atrofida, ovk^at tark,atish joyi yakinida urnatiladi.

Kvadrat stollar shaxmat shaklida kuyiladi, bu ofi-siantdar xizmati uchun kulaylik tugdiradi. Kvadrat stol-lardan katta banket stollari yasash mumkin.

Dumalok stollar kvadrat stollarga moslashtirilib kuyiladi. Ular xam uz yuliga zalga

chiroydi manzara beradi.

Tugri burchakli olti urinli stollarni odatda devor yoniga kuyiladi yoki zal urtasiga dumalok Ba kvadrat stollarga mutanosib ravishda urnatiladi.

Zalga mebel kuyishda iste'molchilar okimi kaysi to-monga, ofitsiantlar kaysi tomonga yurishini e'tiborga olish zarur. Zalda bush utish yuli va ikkinchi darajali yullar buladi. Kiriladigan eshikdan boshlanadigan bosh yul kengligi 2 m dan kam bulmasligi kerak. Ikkinchi darajali yulaklar eni 1,5 m dan kam bulmasligi lozim. Stollar oraligi 0,75 m dan kam bulmasligi maksadga muvofikdir.

Zalga kirshi yulagining kengligi

Utish yulagi	Kengyaigi, m	
	resgoran	kafe
Asosiy	1,5	1,2
Kushimcha: mijozlar yunalishi	1,2	0,9 0,4
Aloz [^] ida joylarga utish	0,6	

Kup xrlarda restoranlarda stul vakreslolarning uch-turt xillaridan foydalaniladi. Ularni terilganda kator-larga bir xillarini kuyish talab kilinadi. Odatda kres-lolarni kup urinli stollarga kuyiladi. Stullar, kresdo-lar bir xil konstruksiyada bulsayu, koplangan materiallari xar xil rangda bulsa, ularni pala-partish kuyib tash-lanavermaydi, ranglarini moslashtirib terilsa, zalga xusn kushali.

Yordamchi stollar ofitsiant ishlashi kulay bulgan joy-larga urnatiladi. Ular ustiga maxsus dasturxon yopiladi. Yordamchi stollar mikdori xizmat kilayotgan ofitsiantlar soniga karab belgilanadi. Ularning xar biriga birikti-rilgan stollar buladi.

Yordamchi stodlarga kuyiladigan talablar: ular mustax,-kam bulishi, kuchirib yurish uchun yengil va kulay bulishi kerak. ?(arakatlantirishga oson bulishi uchun ular gildi-raklarga urnatilgan buladi.

Yordamchi stollarda ofitsiantlar butilkalar kopkogi-ni ochadi, u yerga idishlar kuyadi, taomlarni taksimlaydi. Bu stollarning kengligi ovkatlanadigan stollar eniga teng buladi (800—900 mm), buyi_xam tushlik kiladigan stollar bilan barobar (730 mm). Yordamchi stollar ovkat- j lanadigan mijozlarga yakin, kurinadigan kilib kuyiladi, chunki ofitsiant ishini ular kuzatib turishlari mum-1 kin bulsin.

Restoran zalida stol-stullardan tashkari ofitsiant-" ;

lar uchun servant kuyiladi, bu yerda ofitsiant idish-to- ;

voklar, anjomlar, sochik Ba boshkalarni sakdaydi. Ser-vantlar ^am ovk.atlanadigan stollardan olis bulmasligi kerak, chunki ofitsiant zarur narsalarni tez olib, med-monlar oldiga kuyishi uchun kulay bulsin.

Shuningdek, zalda xar 3—4 ofitsiantga bitta muzlat-gich kuyilishi mumkin. Kul ostida bunday muzlatgichlar-ning bulishi zalga xam tegishli savlat baxsh etadi, mi-jozlarning xam kunglini kutaradi.

Muzlatgich shkaflar ikki xil buladi:

1. Urta xaroratli. Maxsulotlarni salkinda saklash uchun — O^o darajadan +10°S gacha.

2. Past xaroratli, ma^o;sulotlarni muz xolida saklash

uchun.

Turli daroratli muzlattich kameralari xam bor.

OShXONA SOChIKLARI, IDISH VA ANJOMLARNI OLISH VA XIZMAT BOSHLASHGA TAYYoRLASH

Restoran ichini tozalab bulgandan keyin, stollar joy-joyiga kuyilgach, ofitsiantlar brigadiri restoran ochilishidan ikki soat oldin idish-tovokdar, sochik va boshka anjomlar sakdanadigan xonadan kerakli anjom-larni oladi va stol yasatishga kirishadi. U stollar soni va kelishi mumkin bulgan mijozlarni muljallab xara-kat kiladi. Ba'zi restoranlarda sochik, dasturxon, sal-fetkalarini navbatchi ofitsiantlar oladi. Bularni kabul kilib olishda ularning xolatiga e'tibor beriladi. Ya'ni dasturxon, sochikdar, sochik^o-salfetkalar top-toza, kraxmallangan, dazmollangan bulishi shart. Idishlar esa, sinmagan, darz ketmagan, xammasi bir nusxa bulishi

kerak.

Bu olingan kerakli narsalarning dammasi ofitsiant servantiga kuyiladi. Ish unumli bulishi uchun ofitsiant servanti tartibli bulishi lozim: servantning teparogi-da oshxona anjomlari, urtada—tarelkalar, pastda — sochik, dasturxon buladi. Idish-tovokdarning bir kismi — issik ovkat kuyilishi kerak bulganlarini — ilik. dodda sakdanadi- Foydalanilgan idishlar urniga ofitsiant to-zasini olib turadi.

Ofitsiant xizmat kilayotgan stollariga kerakli va yetar-**li** idish-tovok^o, anjomlar olishi kerak.

Stol yasatish uchun kerakli idish-tovok va anjomlar-ni tashishda ofitsiant uch kavatli aravachadan foydalana-di. Yu^oori kavatda tarelkalar, urta kavatda anjomlar turadi. Stol yasatishdan oldin olingan xamma narsa tek-shirib kuruladi: ularning yuvilish sifati, tarelka va boshka idishlarda darz ketgan, uchgan joylari yuk^omi, vil-kalarning tishlari sinmaganmi — dammasi tekshirib kuruladi. Kamchiligi bor narsalar tezda almashtiriladi.

Ofitsiant kul sochik, bilan idishlarni artadi.

Idishlarni artganda kuyidagilarga rioya kilinadi:

— chap kulda sochikcha bilan tarelka ushlanadi, sochik,-ning ikkinchi tomoni bilan ung kulda aylantirilib, tarelka artiladi;

— ryumka va kadaxdarni chai kul bilan pastidan ushlanadi, sochikcha bilan ung kulda, bosh barmok,ni ichkariga tikib, boshka barmoklar bilan sirti artiladi;

— uzun kadaxlarni extiet bulib artish kerak. **Ichiga** sochik, uchi solinib artiladi. Sungra kuruk^o sochik, bilan artiladi.

Pichoklarning bir nechtasini chap kul bilan sopidan

— tegishli darajada xomashyo, materiallar, yokilgi **za**-xiralarini barpo etish va sakdash;

— mol yuboruvchidan keladigan tovar va taralarning sifati, mikdorini jiddiy tekshirib

kabul kilish;

— xomashyo va sotib olingan tovarni sakdash uchun tavsiya etilgan usulda sharoit yaratish;

— belgilab kuyilgan grafik buyicha xomashyo va **tovar**-larni topish, tanlash va ishlab chik.arishga berish.

Umuman olganda omborxonalar xujaligi mol yuboruvchidan xomashyo, maxsulot va chala tayyor maxsulotlarni kabul kilib olish, kisk,a muddatga sakdash vazifasini bajaradi. Yuklarni k,abul kilib olish uchun Omborxonalar ba-landligi 1,1m, eni 3 m, uzunligi 3 m dan kam bulmagan maydonga ega bulishi kerak. Kichik korxonalarda fakat yuk tushiradigan maydonchalar buladi xolos.

Yirik korxonalarda yuk tushiradigan, ortadigan may-donlar uzunligi 12 m dan kam bulmaydi. U yerda birdani-ga 4 ta avtomobilga yuk ortish yoki tushirish mumkin.

Omborxonani jixozlash zalning turi va sigimiga, tovarlar zaxirasi me'yoriga, ish xajmi, maxsulotlarni sakdash va tarkatlashiga boglik. Omborxonalar stellajlar, maxsulotlar ostiga kuyiladigan moslamalar, ulchov an-jomlari, sovutgichlar, yuk kutargich va boshk,a asboblari bilan ta'minlanishi, shuningdek kuruk maxsulotlar sak,-lanadigan xonalar kuruk,, yaxshi shamollatiladigan buli-IIIi, lotok, stellaj, shkaflar bilan ta'minlanishi kerak. Shkaf, lotok va boshkalar bilan pol oraligi 15 sm buladi. Taralarga joylangan maxsulotlar xam poddan 15 sm yukorida bulishi lozim. Maxsulotlar bilan devor ora-ligi 20 sm dan kam bulmasligi kerak. X.avo xarorati va namlik omborxonada bir me'yorda bulishi lozim. >^arorat-ningdam kutarilib, dam tushib turishi maxsulotlarni mogorlashiga, sifatining yemonlashishiga olib keladi,

Un va yormalar k^oplarda stellajlarda, makaron maxsu-lotlari kugilarda saklanadi. Ikki xaftadan sung k,ol-•charning urinlarini almashtirish lozim. Shakar-kandlar ^oplarda, tuz kutida saklanadi. Bu maxsulotlarni kuchdi ^id chik^aradigan va nam maxsulotlardan aloxida joyda

saklash lozym. Kofe va chey xam aloxida-aloxida saklana-di, xidli maxsulotlar yakiniga kuyilmaydi.

Kartoshka va sabzavotlar yertulalarda sakdanadi (xaro-rat 2—5°S, xavo namligi — 80—90%), ular kutilarda yoki yerga yoyilgan xolda 1,5m dan ortik bulmagan kalinlikda bulishi lozim. Tuzdangan bodring, karamlar bochkalarda, mevalar, salat, kukatlar, shavel, kuk piyoz kugilarda, sa-vatlarda saklanadi. Omborxonalarda xamma maxsulotlar-ning yaxshi saklanishi uchun tuda sharoit yaratiladi.

Asosiy xomashyolarni omborxonalarda saklash kiska muddat davom etadi. Korxonalar omborxonalarida xomashyolarni saklash muddati uning turiga, joylashgan xududi-ga, asosiy maxsulot bazasi bilan bulgan oraligiga, shu joyning ob-xavo sharoitiga boglik.

Ozik.-ovk.at maxsulotlari .	M a^sulotlarning sa^anshp muddati, sutka
Gusht maxsulotlari	2-3
Balik,	1-2
Sut-yog	2-5

Sug	0.5
Sabzavot	5-10
Kukatlar • . .	1
Msva-chevalar	1-2
Non maxsulotlari	1

Ayni^sa, tez buziluvchi maxsulotlarni sak^ash mudda-tiga rioya k,ilish kerak: gusht, balik., tvorog, sabzavot, chala tayyor maxsulotlar, sut-katik maxsulotlari, kulinar, kandolat maxsulotlari, kalla-iochalar. Yuk.oridagi maxsulotlarni ~ 4 dan + 6° S gacha bulgan ob-xavo sharoitida sak-lash mumkin.

Gusht va gusht maxsulotlari muzlatgich kameralarida sarutanadi. Gushtlar kanaraga osiladi yoki stellajlarga joylanadi. Muzlatilgan gushtdar butunlayicha brezentga uralgan xolda sakdanadi. Agar gushtni muz ustida sakla-nadigan bulsa yoki muzdan tushirilgan bulsa, toza kleyonka yoki yogoch stellajlarga k,ator kilib taxtlanadi.

Taomlar tayyorlash uchun muljallangan gushtlarni sal-k^ii sexdan tezlikda issik sexga utkazish lozim. Xom gusht yoki balikni pishirishga tegishli bulmagan maxsulotlar bilan birga kuyish takikdanadi (sarieg, zaimok, mayonez, mevalar va xokazo). Muzlatilgan yoki sovutilgan par-randa gushtlari taralarda saklanadi. Saklash muddati gushtga tenglashtiriladi.

Kalla-pochalar xam turlarga ajratiladi, kutilarga solinib, omborxonaning belgilangan xonasida sakdanadi. Sovutilgan kalla-pochalar 12 soat, muzlatilgani 24 soat sa^anishi mumkin. Dudlangan gushtlar sovutgich kameralarida 20 sutkagacha saklansa buladi.

Pishirilgan kolbasalar osilgan xolda sakdanadi, muddati 48 soatdan oshmasdan sotilishi kerak. Sovutgich ka-meralar bulmasa, kolbasa kabul kilish mumkin emas. So-siskalar uchun muddat 48 soatdan oshmasligi lozim. Sovutilgan yoki muzlatilgan baliklarni saklash muddati 2 sutka. Sovutilgan kameralarda xarorat 2° S bulganda — 3' sutkagacha. Tirik bilikdar xam akvariumlarda sak^tanadi.

Sut maxsulotlari 0 dan 8° S gacha bulgan ob-xavo sharoitida sakdanadi, xavo namligi 80—85 % bulishi kerak. Sariyoglar maxsus pergament kotozga uralgan x^olda boshka maxsulotlardan ajratilib sakdanadi. ^Sovutgich kameralarida 10 sutkagacha turishi mumkin. Yirik pishloklar idishsiz maxsus taxta javonlarda sakdanadi, oralariga karton kuyiladi.

Kaymok, tvoroglar bochkachalarda kopk.ok bilan yopil-gan xolda turadi. Kopkok ostida pergament yoki sello-fandan parda bulishi lozim. Bu maxsulotlarni chinni va yorochdan ishlangan sigimi 20 l gacha bulgan idishlarda xam saklash mumkin.

Tuxumdar xam idishlarda 2° S xaroratda sakdanadi.

Omborxonadagi ishlarda kuyidagi xilma-xil asbob-anjomlardan foydalaniladi: turli xil pichokdar, gusht chopadigan bolta, arralar, yogoch kurakchalar, zanglamaydi-gan pulatdan yasalgan koshiklar, taralarni ochadigan as-boblar, termometr, areometr, psixrometr, yog, pishlok., un, yormalarni sinovchi asboblar, yog keskichlar, usimlik moy-Lari kuyish uchun nasoslar, kanara, gushtilgichlar. Ombor-xona xujaligi ishlarini unumli

amalga oshirish uchun yuk ortish-tushirish jarayoni mexanizatsiya va avtomatizatsiya irkali oajariladi. Bu ishlarda kul aravachalari yordam beradi, yuktashuvchiliftlar, transportyorlar, yirikkor-xonalarda yanada murakkabrok mashinalar ishlatiladi. Eshik eni 1,5 m gacha, yulak kengligi 3 m gacha budadi. ,

Ikki va undan ortik kavagli binolarda yuklar kaday , kurinishda bulmasin vertikal yuk kutaruvchi pod'yomnik -larda olib chikiladi- Bular juda kulay xisoblanadi. Yuk kutargichlarning boshka xillari ?<am mavjud, ular kul mexnatini yengillashtiradi, Yuklar odatda konteynerlar-da, tur xaltalarda, savatlarda, kop va kutilarda tashiladi. ,, Yirik korxonalarda un bunkerlarda sakdanadi. Idish- ;

siz tashiladi. Omborxonadan maxsulotlarni ishlab chi-karishga tezrok, chikarish maksadida doimo ishlatiladi-gan, tortib kuyilgan idishlardan foydalaniladi.

Omborxonona xujaligidan foydalanishda kator sanitariya-gigiena talablariga rioya kilish zarur. Eng avvalo omborxonaning ?;amma xonalari xar kuni supurilib-to-zalanib turilishi shart.)(aftada bir marta katta toza-lov, oyda bir marta bino ichi dezinfeksiya kilinadi. Bu^| kun sanitariya kuni deb e'lon kilinadi. OmborxonalaD doimo shamollatiladigan va sun'iy ventilyasiya urnatil-d gan bulishi shart- Sovutish kameralarida sabzavot, mevaDI chevalar, ovkat chik.indilari aloxida-aloxida saklanitsS va aloxida ventilyasiya urnatilishi kerak.

Omborxonani idishlar yuviladigan xona va sanitar^I uzeli ostiga joylashtirish mumkin emas. isitish boci^b talari va dushlar yonida xam bulmasligi kerak.

Xomashyo va boshka tovarlarni omborxonadan ishlab '[1^1 k,arish sexiga, shuningdek filial, bufetlarga talabno^^I asosida ishlab chikarish mudiri yozib beradi, direktor ku|N Kj/yadi. Sungra talabnoma buxgalteriyaga keladi, bu yerda ta-] labnoma-yukxat yoziladi, katta buxgalter, direktor kul kuyadi, omborchi tomonidan xujjat egasiga maxsulot beriladi. Molni k^abul kilib oluvchi mas'ul shaxe uning as-yeortimenti, massa, sifatini tekshirib kabul kiladi.

Umumiy ovkatlanishning yirik korxonalarida raxbar tomonidan tasdiklangan grafik buyicha omborxonona mudi- i ri mol tarkatadi. Ishni yengillashtirish uchun omborxonona xodimlari oldindan mollarni navlarga ajratib tayyor-lab kuyadilar. **Maxsulot** yuboruvchining idishidan kabul

^ilib oluvchi uzining toza idishlariga solib olishi kerak. Mol yuboruvchining idishi sexlarga kiritilmaydi.

TAYYOR MA^SULOTLAR NAZORATI

Tayyorlangan taomlar sifatini nazorat (brakeraj) kilish xar kuni amalga oshiriladi. U tarmok,, ma'muriy va shaxsiy nazoratdan iborat.

Tarmok nazoratini maxsus komissiya amalga oshiradi. Umumiy ovk,atlanish korxolnasida tayyorlangan taomlar sifatiga komissiya a'zolari vakti-vakti bilan baxo beradi. Koida buzilishi yuz bersa, tekshiruv dalolatnoma-si tuziladi.

Ma'muriyat nazorati ishlab chikarish mudiri, uning ^rinbosari, brigadir-o shpaz tomonidan kun buyi amalga oshiriladi. Nazoratchilar bir smenada ikki marta tan-lagan taomlarni tekshiradi. Komissiya a'zolari taomning sifatini anikdash uchun sotuvdagi max,sulotni olib tek-shirishi mumkin.

Nazorat komissiyasi a'zolari tekshiruv ishlariga ki-rishishdan oldin taomnoma bilan, texnologik va kalkulyasiya kartochkalari bilan jiddiy tanishib chikadi. Tayyor taomning massasini aniklaydi.

Taomning va kulinar maxsulotning sifati uning ma-zasi, x[^]idi, tashki kurinishi, rangi buyicha anikdanadi. Yukoridagilarga asosan maxsulotga «a'lo», «yaxshi», «k[^]oni-karli», «k.onik.arsiz» ba?;o kuyiladi.

Taom tayyordangan retsepturaga va tasdiklangan texnologiyaga tula moe kelsa, kurinishi, mazasi, xidi, rangi va sarflangan maxsuloti ularga kuyilgan kursatkich va talablarga javob bersa, bunday taomga «a'lo» baxosi beriladi.

Retsepturaga rioya kilinib, taom a'lo darajada mazali, ammo shakl berishda kamchilik bulsa, tuzi pastrok.yoki shur bulib ketsa va shu kabi kamchiligi bulsa, «yaxshi» bax.o beriladi.

Agar taomni kayta tayyorlashga yuborilmasa, uncha mu-xim kamchiligi bulmasa, u xolda bunday taom va kulinar maxsulotlarga «k[^]onikarli» bax;o kuyiladi.

Taom va kulinar maxsulotlari katta kamchiliklarga ega bulsa, taomdan noxush xid kelsa, nordon, achchik, bulib, uz shaklini yukotsa, kuygan bulsa, pishmagan, yaxshi krvu-rilmagan bulsa, «krnikarsiz» baxo kuyiladi. Bu taomni kaytarib yuboriladi yoki yaroksiz deb topiladi va tegish-li dalolatnoma tuziladi.

Taomlar sifatini yukori darajaga kutarishning eng yaxshi usullaridan biri shaxsiy nazoratni amalga oshirish-dir. Bu vazifa eng yaxshi oshpazlar zimmasiga tushadi. V— VI darajali oshpazlarning uzlari nazoratchilikni olib boradi va yukori sifatlil taomlar tayyorlanishiga kafil buladi. Bunday xukukga ega bulish maxorat va fidokorona mexnat tufayli buladi. Shaxsiy nazoratchi xukukiga ega bulgan oshpazlar xar uch yilda kayta attestatsiyadan utkazi-ladi va bu xukukni navbatdagi muddatga kulga kiritadi- Bu xukukdan maxrum kilish sifat komissiyasi talabi bilan-gina amalga oshishi mumkin. Taomlar nazorati jurnaliga komissiya taom va kulinar maxsulotlar sifati xakidagi uz muloxazalarini yozadi. Bunday jurnal ip utkazilgan va surguch bilan tamgalangan, betlari rakamlangan buladi. D Jurnal ishlab chikarim mudirida sakdanadi.

Xar oyda ikki-uch marta taom va kulinar maxsulotlar sanitariya-ozika lab orator iyasiga yuboriladi, u yerda ta-omga maxsulotlar tula solinganligi va sifati talabga javob berishi taxdil kilinadi.

TAYYOR TAOMLARNI TARKATISH VA SAVDASH KOIDALARI

Ovkat tarkatiladigan bulimda taomlarni tez tarka-tish va ular urnini tez tuldirib turish lozim. Taomlar-ning xarorat darajasini tegishli me'yorda tutib turish[^] zarur. Taom tarkatish bulimi, issik,, salkin sexlar bi-| dan tugridan-tugri boglangan bulishi, non beriladigan, i idishlar turadigan joy, idishlar yuviladigan xona, bufet| bilan yak,in joylashishi kerak. Oralik masofalari xam| belgilangan talabga javob berishi lozim. Nazorat-kassa| mashinasi xam tegishli urinni egallashi, uning tepa to-| monida taomnoma yopishtirilgan vitrina bulishi lozim.

Ovkat suzish bulimidan boshka bulimlarga erkin ki-, rib-chikadigan bulishi kerak.

Oshxona ovkat suzish joyidan issik shkaflil seksiya liniyalari bilan ajratiladi. Salkin sex seksiya peshtaxtalari bilan ajratilgan buladi. **Bu** yerda muzgenerato-ri buladi, zarur

paytda ofitsiantlar muz olib ketadi. Bufet bilan ovkat tark.atish oralgida eni 60 sm lik peshtaxta kuyiladi, buyi 90 sm li sovutgnch jixozlar, stel-lajlar urnatiladi. Kofe bufetida issikdik jixozlari kuyiladi. Ba'zi restoranlarda ofitsiantlar bufetdan kandolat va boshk^a donalab sotiladigan narsalar olishi mumkin. Ofitsiantlar taomlarni zalga patnislarda yoki aravachada olib kelishlari mumkin.

Tushlik paytlari birinchi taom beradigan oshpazning ish urni kuyidagicha buladi. Birinchi taom kuyilgan kast-ryul yon stolga kuyiladi, bu yerda kukatlar, kuk piyoz, kaymok, ikkinchi issik, ovkat uchun tugralgan gusht, balik. buladi-

Ikkinchi taomni tugridan-tugri plitadan olib, idish-larga suziladi.

Stolda tugralgan sabzavotlar, lavlagi, sabzi, bodring, kuk utlar, piyoz, kaymok, limon va boshkalar turadi, ular kerakli taomga kush.ib beriladi.

Ovkat tark.atishda, taom yangi bulishi, issikdik dara-jasi talabga javob berishi kerak. Birinchi taom va issik ichimliklarning xarorati 75° S dan kam bulmasin, ikkinchi taomniki — 65° S, sous— 75^0 S, sovuk, va shirin taomlar $7—14^{\circ}$ S, buyurtma taomlar $80—90^{\circ}$ S bulishi kerak.

Tayer taomlarni tark.atish bulimida saklashning xam muddati bor. **Bu** fakat sanitariya talablariga rioya kilish-gina emas, balki taom maza sifatini yukatmasligi uchun xam kerak. Ilvirab pishgan gusht, balik. gushti uchun al-batta sovutgich kamera bulishi (xarorat 6° S dan oshmas-ligi) darkor. Uni 12 soatdan ortik, ushlab turilmaydi, vinegret, sabzavot, gusht, balikdan kilingan salatlar xam shunday. Boshk.a kator maxsulotlar muddati xam 24 soatdan oshmasligi, xarorat 20° S dan past bulishi lozim. Buterbrod 3 soat ichida iste'mol kilinishi kerak.

Tort, pirojniylar kushiladigan maxsulotiga karab 6, 36, xatto 72 soat sakdanishi mumkin. Muddat texnologik ishlov jarayoni tugashidan boshlab xisoblanadi.

Maxsulotni belgilangan muddatdan ortikrok, sakdab turishga aloxida xollarda yul kuyiladi. Bunda kuyidagi shartlarga rioya kilinishi kerak: kolgan ovkat pishiril-gandan sung 3 soat ichida 8° S dan yukori bulmagan daraja-da sovutilishi kerak, 12 soatgacha sakdab turish **mumkin**.

Ovkat tarkatilishidan oldin ikkinchi marta kaynatili-shi talab kilinadi. Sungra bir soat ichida taom iste'mol etilishi shart. Ovkat tarkatiladigan joylarda, filial, bufetlarda taomni kayta isitadigan plitalar, idish yuva-digan joylar buladi. Taomlarni termoslarda 3 soatgacha saklash mumkin, sabzavotli taomlar 2 soatgacha sakdana-di. Bu muddat tulgach, taom isitiladi, suyuk ovkatlar kay-natiladi.

Uyga beriladigan tushliklar aloxida xonalarda, mi-jozning pokiza idishiga solib beriladi. Shisha idish-larda uyga ovkat berish takiklanadi.

Tekshirish uchun savollar

1. Omborxonalarga kUyiladigan talablarni aytib bering. Maxsulotlarni saklashning asosiy koidalari k, anday?
2. Gusht, balik, sabzavot, sal^in, issik,, k.andolat sexlari-da maxsulotlarga ishlov berish jarayonini tashkil ^ilish-ga k.anday talablar kuyiladi?
3. Omborxona xujaligi k,avday vazifalarni bajaradi?
4. Oshxonadagi idish-tovokdar xaiyma suzlab bering, ular k, anday materiallardan

yasaladi?

5. Sabzavotlarni mashinada tozalashning afzalligi nimada?

6. Oshxona idishlarini yuvish k, anday tashkil kilinadi?

7. Tayyor taomlarni nazorat (brakeraj) k; anday amalga oshiriladi?

8. Taomlar sifatiga baxo berilganida ^nday talablar kuyiladi? 9- Ovkat tark;atimda asosiy koidalar nimalardan iborat? 10. Sovu!; gazaklar, birinchi, ikkinchi va shirin taomlarni sakdash muddatlarini aytib bering. II BOB

RESTORANNING SAVDO VA YORDAMCHI XONALARI, ULARNI JI^OZLASH SAVDO XONALARINING KURINISHI

Xozirgi zamon restoranlarining peshtok ixcham man-zarali-badiiy usullar bilan ichkariga rang-barang yorug-lik beradigan k, yalib ishlanadi. Kup x^ollarda peshtok;-ning yuk;ori k^ismi maxsus kuzgusifat oynalardan tayyorlanadi. Yaxlit yoki k, isman ishlangan oynalarga atrofidagi manzaralarga moslangan xolda 6yeiyap beriladi- **Ich** xovliga gullar maydonchasi barpo kdlsh mumkin buladi- Res-toranning peshtoki tashki muxit bilan x^amox.ang bulib ketadi. Yagona badiiy-estetik arxitektura kiyofasi vujudga kelib, tabiatga kushilib, mijozlarning kayfiyatini xush-laydi, ruxiy shodlik xissini uygotadi.

Ba'zan peshtoklarga material ishlatishda ularning tabiiy x.olaticha koldiriladi: gishtlar uz xolicha, toshlar bulaklangan koyalarni eslatadi, yogochlar uz xolicha randa-lanmagan, sopol max^sulotlari xam «kupolligicha» teriladi.

Restoran peshtokini bezashda mildiy me'morchilik namunalari kullaniladi. Uzbekiston mustakillikka erishgach, ayniksa bu soxaga katta e'tibor berildi. Res-toranlargina emas, Respublikaning butun xududida kuri-lish soxasida milliy an'analarga e'tibor kuchaytirildi. **Bu** koshonalarga berilgan bezak, me'morchilik maxorati-ga koyil kolasan kishi. Bu kuli gul, didi utkir ustalar mustakilligimizgacha kaerda ekan? Milliylik yukolishi kerak, x^amma narsa baynalmilal bulishi kerak, deb uzbek-ning ota-bobolaridan kolgan ming-ming yillik madaniya-tini sovet tuzumi bugib tashlagan edi.

Tungi paytlar restoran tashki kiyofasining chiroyi elektr nurlari bilan yoritilishiga boglik. Tashkarini did bilan yoritish binoning arxitektura jixatdan kurkiga kurk kushadi. Korxonaning xarakteri, unga yondashish belgilanadi. Yoritish vositalarini Yakl-idrok, did **bi-** | lan urnatish mijozlar dikkatini jalb kilishi uchun amal- ^ ga oshirilgan tadbirlardan biridir. Shaxar shov-shuvla-;

ridan narirok, chekkarokda joylashgan kafe yoki resto- ' ranlarda odmirok. yoritish usullari kullash maksadga 1 muvofikdir. Shovkin-suronli magistrallarda, odamlar • kup tuplanadigan joylarda yoruglik bezaklari ancha man-zarali va yorkin bulishi mumkin.

Restoran zallari binoning ikkinchi-uchinchi kavatlari- ;;

da bulganda peshtokni xar kancha yoritsa bulaveradi, ammo | zallar pastki, birinchi kavatda bulsa, xaddan tashkari elektr nurlariga kumib tashlash mumkin emas, chunki tashkaridan :

tushgan nur mijozlar kuziga tushib xalakit beradi, elektr nurlarini tusish choralari kurishga tugri keladi. Shuning i uchun peshtokni jixozlashda bunga e'tibor berish kerak.

Restoran va unga kirish joyi uzokdan bilinib turishi | uchun peshtok elementlari, yoritilishi arxitektura tizimida ^isobga olinishi lozim.

Restoranga odamlar bir iaytda xam kirishadi, xam chi- | k^ishadi. Bularni xam nazarda tutish shart. 50 dan ortik \ urinli zali bor restoranlarda xizmatchilar uchun aloxida | kirish-chikish eshigi, zinapoya bulishi kerak. 1

Restoranga kirish joyi tepasi yengilgina kilib ber-kitilishi lozim. Bu yogin-sochindan mijozlarni ximoya kilish gamxurligidan bir nishonadir. Bu yerda mijozlar zontlarini yigib, uzlarini rostlab ichkariga kiradi- It

Restoranga kiradigan eshiklar did bilan ishlans^I oyna, yogoch, metallardan kilingan yaltirok, kuzga tashla^I nadigan bulsa, peshtoki kup jixatdan diqqatga sazova^I buladi. U ikki tomonga ochiladi-gan, aylanadigan bulish^I mumkin. Eshiklari kanday urnatilishi ichkariga kira^I digan mijozlar okimining oz-k^iligiga boglik. Tigi^I soatlarda eshik oldida odamlar tuplanib kolmasligi ke-^ rak. Aylanadigan eshik eng kulay xisoblanadi, ammo kup | xollarda bunday eshiklar restoran turiga turri kelmay' ;

di. X,amma xolatlarda xam restoranga kiriladigan eshik kucha tomondan yaxshi kurinib turishi, keluvchilarning kirib-chikishiga kiyinchilik tugdirmasligi kerak.

Restoranga kirishda eshik oldida poyafzalni artib kiradigan temir urnatiladi, sim-tur, chutka kuyiladi. LoY oyok kiyimlarini artib-tozalanib, ichkariga kiriladi. Tuvakchalarda xar xil usimlik, gullar ustiriladi. 100 va undan ortik. odam sigadigan restoranlarda, agar tashkari-da 15° S sovuk bulsa, eshik buylab issik xavo yuboriladi.

Tashkilot kuyidagi ma'lumotlar ifoda etilgan lavxaga ega bulishi kerak: uning turi, toifasi, yuridik shaxsning faoliyat shakli, vazifasi, ish rejimi, kursatiladigan xizmat.

Eshiklarga osib kuyiladigan e'lonlar metallardan yoki organik oynadan yasalishi va suzlar uyib yozilgani ma'kul.

Restoran daxlizida yoritiladigan tablo urnatiladi, unda zaldagi bush joylar kursatib turiladi. Orkestr, ashu-lachilar, musikadasturi xakida ma'lumotlar berilsa, yana xam yaxshi buladi.

;. Arxitektura nuqtai nazaridan xrzirgi restoranlar uchta xududni uz ichiga oladi;

- taomlar tayyorlaydigan bulim;
- taomlar tarkatiladigan zallar;
- dam olish xonalari.

Arxitektura-kuril ish shakllari xilma-xil bulishiga karamay, restoranlarni rejalashtirish asosiga umumiy kompozitsion tamoyillar kuyilgan — bular binoning xamma xonalaridan unumli foydalanishning asos kilib olinishidir.

K^rilish loyixasi me'yor va kridalariga muvofik.res-toranning mijozlariga ovkatlanish zallari, daxlizi (garderob, yuvinish va xrjatxonasi), peshzal, bar, kokteyl-xoll, bufetlar, chekish xonalari xizmat kidali. Katta zal-larda rake maydonchalari, estrada va san'atkorlar chikishi uchun joy ajratiladi. Ba'zi restoranlarda shaxarni tamo-sha kiladigan balkonlar, k.avatlarda maydonchalar buladi.

Savdo xonalariving tavsifn.

An'anaga muvofik savdo xonalari, uyga ovkat berish joyi, daxdiz (garderob, yuvinish

va xojatxona), resto-ranning peshzali, barlar, kokteyl-xollar, idish-tovok, taxlanadigan, idishlar yuviladigan joylar — xammasi savdo zali tarkibiga kiradi.

Umumiy ovkatlanish korxonasi savdo zallarida bir uringa maydon me'yorining kuyidagi satxi (m^2 da) tugri kelishi lozim:

~ oshxona	1,7—1,8
~ kafe	1,2—1,7
— restoranlar	••.: 1,7—1,8 ~ umumiy tur tamaddixonalar ' 1,6
— somsa, sosiska, chuchvaraxonalar	1,4—1,6
— pivo barlari	1,4 Bu me'yorga estrada,raks, banket zallari xam kiradi.

Daxliz (vestibyl). ?<ar bir kishi restoran yoki kafe ostonasini bosib ichkariga kirar ekan, daxliz, garderob, zallar va boshka xonalar kandayligiga kuz tashlaydi. Bu yerdagi arxitektura, yoruglik berilishi, axborot element-lari kishi ruxiyati, ichki dunesiga darrov ta'sir kiladi.

Daxliz — bu mijozni birinchi kabul kilib oladigan dargox, shu yerdan xizmat kilish boshlanadi. Daxliz kan-day jixozlanganiga, kutib oluvchilarning xushmuomala-ligiga karab, bu restoranning xizmat kilish darajasi xasida muloxaza iaydo buladi.

Daxlizda keluvchilar uchun kiyim yechishga garderob, kul yuvadigan xona va sungra zal keladi.

Daxpiz tor bulsa, keluvchilar sirishmay, navbat katori kuchagacha chikib ketsa, bu xizmat sifatining pasayishiga, iste'molchilar kayfiyatining buzilishiga olib keladi.

Daxpiz maydoni restoran zali maydoniga moe kelishi kerak. Restoranning ichki bezagi uning nomiga munosib bulishi lozim. Loyixada shu narsaga e'tibor berish kerak-ki, mijozlar eshikdan kirishi bilan zalga ruparo bulma-sin. Daxliz keng bulsin, odamlar erkin yursinlar. Daxliz maydoni zal maydonining turtdan biriga tugri kelsin.

Maydoniga karab daxdizlar kichik, katta va zalpesh-larga bulinadi. Bular zaldan aloxida buladi, xizmatlar xakida restoran axboroti va yul kursatkichlar osib kuyish tavsiya etiladi.

Restoran 50 urinli bulsa, daxliz maydoni $50 m^2$ gacha, 400—600 urinli bulsa, $100 m^2$ va undan ortik buladi. Ba'zi restoran daxlizlarida gazeta, sigaret, sovgalar sotish uyushtiriladi.

Daxlizga oynalar, yengil-yumshok mebellar, kreslo, yumshok kursilar, jurnal stodlari kuyiladi. "-

Restoran, kafelarda sovgalar sotish uchun vitrinalar, avtomat-telefonlar urnatiladi.

Garderob — bu yerda restoranga keluvchilarning ust kiyimlari kabul kilinadi. Garderobda ikki tomonlama kiyim ilgichlar buladi, ular ishlash uchun kulay kilib yasalgan bulishi kerak. Balandligi 1,5 m. Ilgichlarning mikpori zaldagi urinlarga k^araganda 10% ortik, bulishi dozim. Ilgichlar va nomerlar aloxida buyurtma asosida tayyorlanadi. Ilgichlar oraligidagi yulak 70 sm dan kam bulmasligi kerak. Sumkalar, portfellar va boshka ku^mragi buyumlar shkafchalarga kuyiladi. Ilgichlarning pastki kismida oyok kiyimlari uchun xam shkafchalar buladi.

Garderob xodimi kiyimlarni ilishdan oldin uning egasiga nomerni berishi, sungra kiyimni ilishi kerak.

Shunday tartib amalga oshirilganda ish tezlashadi va zar xil yanglishmovchiliklar bulmaydi.

Restorandan chik,ayotganda garderobda birinchi navbat" da ust kiyim, sungra bosh kiyim va xokazolar beriladi. Zalga kirish oldidan kul yuviladi, sochlar tartibga soli-nadi. Garderob yonida xojatxona buladi, unga yukori da-rajada sanitariya talablari kuyiladi: xaddan tashkari ozodalik; yaxshi shamollatish, yoritish. Xojatxonada is-sik va sovuk, suv, atir sovun, elektrsochik va oyna bulishi shart. Restoranga keluvchilarga kullarini yuvganlaridan sung artish uchun bir marta ishlatiladigan sochik,, krgoz salfetka berilishi mumkin.)^ojatxonada maxsus krgoz bulishi kerak. Yana kiyim, poyafzalni tozalash uchun chut-kalar kuyilishi lozim.

Chekish xonasi. Bu xonaga yumshok mebel, kuldon kuyiladi. Tugun tortish murilari moslanadi.

Kutish zali (avanzal) — asosiy zalga kirish oldida pesh-zal — kichik zal joylashadi. Restoranga oldinrok kelib krlganlar yoki banketlarni kutuvchilar shu yerda tuplanadi va keyin zalga kiradi. Kutish zalila mijozlar joy busha-shini yoki banketlarga, mexmondorchilikka keluvchilarni kutib turgan bulishi mumkin. Asosiy zalga munosib ravishda kutish zali ji^ozlanadi. Bu yerga eng zarur mebellar urnatiladi: bir necha kreslo, divan, jurnal stollari. Kutish zaliga kuyiladigan kreslolar xordik chik^arishga moslangan bulishi lozim, suyanadigan, yonboshida tirsak-larni tiraydigan bulishi, asosiy, zaldagilarga Karaganda buyi pastrok bulishi mak,sadga muvofikdir. Ba'zan ayla-nadigan kreslolar kuyiladi. Divanlar utiradigan **aloxi**-da seksiyalardan iborat bulishi mumkin.

Peshzal yoki kichik zal, gul, manzarali usimliklar usti-rilgan idishlar bilan bezatiladi, gullar stollar bilan **birga** bulads. polga katga gilamlar tushaladi. Kichik zalga suyan-chiksiz !omshok utirgichlar kuyiladi, ular kreslo divanlar bilan ^proydi manzara xosil kiladi. \ozirgi restoran-larning kutish zallariga yumshok kursilar, jurnal stollari kuyiladi, ular umumiy kurinishni ochadi, zal ichi keng kurinadi.

Kup restoranlarda zalni bezash uchun rasmlar, xaykal-taroshlik va boshka san'at asarlaridan foydalaniladi.

Restoran zali. Bu mijozlarga xizmat kursatiladigan asosiy .koy. Restoran zali arxitektura va manzarali ele-mentlari bezagi bilan dam olishga moslashgan, bu yerga keluvchidarning ruxiyatini kutaradigan bulishi kerak. Devorlar, uip, polga ishlov berilgan ranglar, mebel-larning uakl va kurinishlari, yoritish usulining origi-nalligi — zalning xamma-xamma xolatlari mijozlarda yana shu yerga kelish tuygusini uygotishi kerak.

Arxitektorlar restoran zalini teatr saxnasiga uxsha-tadi — ofitsiantlar, bosh ofitsiant, ba'zi xollarda osh-paz va boshka xodimlar ijrochilar, mijozlar esa tomo-shabinlar. restoran zalining teatrlashuvi xar xil bulishi mumkin, ammo bu yerdagi bayramona muxit uzgarmasdir.

Bu .xolatni zalni loyi^alashtirganlar va uni bezatgan-lar xisobga olishlari lozim.

Restoran zali xozirgi zamon talablariga t^la javob berim, uning yasatilishi, bezatilishi bu yerga keluvchi-larga ilojs boricha ma'naviy ozuka berishi shart.

Zalning katta-kichikligidan kati nazar bu yerga kel-ganlar erkin nafas olishlari, xushchakchak, bulib ketish-lari kerak. X,ar bir mijoz stoli yaxshi b^olishini, «eng yaxshi bulyuini xoxlaydi». Axoli yashaydigan massivlar-da joylangan restoranlarga keluvchilar bu yerni xuddi uzinikidek tasavvur kiladi va eng yaxshi stolni tanlay-di. Kafe, tamaddixonalarda bu narsaga e'tibor yukdek kurinadi, ammo bari bir, mijozlar yaxshi joy tanlaydi, xolisrok, devor yoniga, burchakrok, stolga utiradi.

Psixologlar shu narsani isbotlaganki, zalning yori-tilishi, mayin ovoz o^oangi (akustika), shamollatilishi, stolning Chiroyli bezatilishi, salfetkalarining estetik did bilan kuyilishi, stollarda yangi ochilgan, ochilayot-gan gul gunchalarining bulishi, past ovoqli yokimli musik,a mijozlarning kayfiyatini kutaradi, ishtaxalarini ochadi.

Uzlarini xolis sezish va manzaradan lazzatlanishda yori-tish tizimi, zalning rangbarangligi, akustika muzush rol uynaydi. Agar zal tushlik va kechki ovk.at paytida mijozlar bilan tulib-toshib ketadigan bulsa, zallarni bir necha zonalarga bulish mumkin. Banketlar va boshka uchra-shuvlar aloxida zallarda utkaziladi.

Asosiy katta zal arxitektur a -rejalashtirishda muxim rol uynaydi. U atrofdaagi zallar, xonalar bilan garmonik kompozitsiyada moslangan bulishi kerak, atrofdaagi xamma elementlar xisobga olinishi shart. Bular jumlasiga: stol ustida dasturxon yasatish, taomlarga shakl berib chiroyli kilish, kompozitsiya, zal yuzini rang barang bezatish, oyna-dan karalganda guzal manzara kurinishi zalning eni-buyi-cha munosib bulishi zarur.

Bundan tashkari zal ovkat tarkatish bulimi, idish-tovokdar turadigan joy, ularni yuvadigan xona va bufet bilan yakin boglangan bulishi kerak. Bino ichining tuzi-lishi yaxshi bulsa, mijozlarga xizmat kilish tezlashadi, taom sifati, shuningdek restoranning ishlab chik^oarish unumdorligi oshadi.

Ofitsiantlar ^oarakatida bir-birlariga tuknash kelib kolmasligi uchun restoran ovk.at tarkatish joyidan xar ikki tomonga xarakat kilish mumkin bulsin. Ofitsiantlar bir tomondan ovkat olish uchun kirishlari, ikkinchi tomondan taomlar kutarib chikishlari mumkin. Bunda ular bir-birlariga xalakit berishmaydi.

Restoran kurishni rejalashtirganda ikkita zal nazarda tutiladi. Restoranning birinchi kavatida — zal va rake tushish maydonchasi buladi, aylanma kurilgan balkonlar xam zal xizmatini utaydi.

Rake maydonchasi. Rake uchun maydoncha zalning xajmi va kompozitsiyasidan kelib chik.kan xolda tanlanadi. Rak.s maydoni zalning markazida bulishi mak^osadga muvofik.-dir, chunki rak.sga tushmaydiganlarning xam e'tibori markazga tez va oson karatiladi. Rake maydoni restoranning boshka kismlarida xam bulishi mumkin, ammo bunda xamma xam rak.sga tusha olmaydi va kupchilik tomosha kilishdan chetda krladi. Restoranda rake va estrada maydoni xar bir uringa 0,15m² tugri kedishi kerak. Estrada Urni 3 dan 8 m gacha ichkariga kirgan bulishi mumkin.

ReSTORAN BINOSINING IChKI KISMI (INTeReR)

Restoran — taom iste'mol etib, tez chikib ketadigan joy emas. Buning uchun Uzbekistonda kabobxona, somsa-xona, mantixona, chuchvaraxona va boshka kator-kator ta-. omxonalar mavjud. Xizmatdaagi, shoshilib turgan kishilar' xamma joyda mavjud bulgan oshxonalarda bir zumda taom, iste'mol kilib ketaveradi. Ayniksa, Uzbekiston

mus-takillikka erishgach, xususiy ovkatxonalar kupaydi, tay-, yorlanayotgan taomlar sifati yaxshilandi. Bozor iktisodi-yotiga moe xodda bu xususiy ovkatlanish ob'ektlari orasida rakrbat kuchaydi. Savdo, rakobat bor ekan, demak, maxsu-lot sifati yukori buladi, baxosi arzonlashadi.

Uzbekistonda restoran faoliyati uncha tarakkiy etma-gan bulsa xam, ayniksa maxalliy axoli restoranga ki-rishdan kura turtta six kabob yeyishni afzal kursa xam, restoranlar kupayib bormokda, ularning xizmati yaxshi-lanmokda. Yangi avlod — yoshlar tikka turib ovkat yeb ke-tishdan kura restoranga kirib, xam ovkatlanib, xam ma'--naviy ozuka olib ketishni afzal kurmokda.

Mijozlar restoranlarni kayfiyatlariga karab tanlay-di. Mazali ovkat yeyish bilan birga, bayramona guzal mu-xitdan baxramand bulish kanday yaxshi. ^ozirgi kunda poy-taxtimiz Toshkentda yevropa, turk, yapon, xitoy, koreys, arab mamlakatlari taomlarini tayyorlaydigan milliy restoranlar paydo bulmokda. Mijozlar xoxlagan restoran-larini tanlab ovkatlanib, xordik, chikarishi mumkin.

Restoranning ichki kismining yasatilishida kuyida-gilardan foydalanish mumkin:

— bezak berishda xaddan tashk;ari modali stillarga berilish kerak emas;

— savdo zalini xar xil bachkana uyinchoklar, mayda-chuydalar bilan urab tashlash yaramaydi.

— restoranga buladigan asosiy gamxurlik **savdo zali**-ga bezak berish, yaxshi yoritishdan iborat;

Kuyidagilarga asosiy e'tibor berilishi kerak: das-turxon, salfetka, shtorlar, gilam, stol va stullar.

Restoranning ichki bezatilishigina keluvchilarning kayfiyatini kutaravermaydi, buning uchun yana a'lo dara-jadagi xizmat xam kerak, madaniy xizmat zarur. **Ichki** bezakni shartli ravishda **ikki kismga bulish mumkin;** dinamik va statik.

Birinchi guru?ua zalning ichi, xoll, zinapoyalar, ki,-rish yulagi va kirish atrofidagi maydonlar kiradi. Bunday loyixa shaxar tashkarisida, urmon ichlarida, kadimgi arxitektura shakllariga boy ymoratlar orasida kuriladigan restoranlar uchun xosdir. Bu turdagi korxo-nalar kurilishida zalning bir kismi tabiat bilan uygun-lashib ketadi. Restoranga kelgan odamlar uzlarini ona tabiat kuchogida yoki tarixiy arxitektura yodgorliklari kuynida deb xis k^iladi. Kurshab olgan muxitning (togu-toshlar, daraxtlar, kum-kuk kukatlar, shaldirab ok^ayotgan shar-shara suvlar) xayotbaxsh xis-tuyrulari kishini uziga rom etadi. Toshkent va respublikaning boshk,a shaxarla-ridagi restoranlar shunday xususiyatga ega. «Anxor», «Bori shamol» restoranlari shaxar urtasidan utgan katta Anxor-ning deyarli ustiga kurilgan. Bir kancha kafelar, umu-miy ovk.atlanish ob'ektlari shu dare atrofiga kurilgan.

Ikkinchi guru^ga kiruvchilar shaxar ichlarida joylash-gan, atrofida daraxtlar, kukalamzor maysalar bulsa xam, xuadi tabiatdan ajralgandek. Kup restoranlar mexmon-xonalar ichida joylashgan. Bularda midliy uyrunlik ta'-siri bor.

Yirik restoranlarda zallar bezalganda tantanavor bayram ruxi sezilib turishi lozim. Buni restoranga kiruvchi xar bir kishi xis kilabilsin. Ba'zi restoranlar shunday

yasatiladiki, xoll, daxliz, zal bir-biriga uxshamaydi, bu xam uziga munosib tantana muxitini vu-judga keltiradi.

X^{ar} bir restoranda uziga xos xususiyat yaratish uchun intilish uning zaliga bulgan e'tibordan boshlanadi. Zal yasatilishi binoning tashki kiyofasi, yasatilishi bilan xamoxang bulishi lozim.

Restoran kurulishida ommaviy ishlatilgan materil-lardan yasalgan bezaklar kuyilishi maksadga muvofik, emas. Masalan, uxshash oynalar, tunuka, yogoch materiallar.

Restoranni jixozlashda, agar ish asosiga badiiylik singdirilsa, zallar pokiza, mebel, idishlar, taomnoma muk^{ovasi} guzal, xodimlar kiyimi bir xilda chiroyli, yoritilish tula amalga oshirilsa, firma uslubiga yoki mu-kim aloxidalikka erishish mumkin.

Zal ichki kismini yoritish muxim estetik axamiyatga ega. Bu bino ichini keng, kurkam, baland yoki past kilib, zal-ni shovkin-suronli yoki tinch-osoysishta kilib kursatadi.

Teatr tomoshalariga uxshatib zallarni yoritish uz koidalariga ega. Katta yiginlar, sessiya, festival katnash-chilariga tezrok xizmat kilish uchun zalda xamma chiroklar yokiladi. Agar mijozlar kuprok utiradigan bulsa, chirok-larning xammasi yokilmaydi. Rake tushilayotgan paytlarda kuchli yoruglik berilmaydi, kup chiroklar uchirib kuyiladi.

Zal shipining baland-pastligiga karab kandillar osi-ladi. Shiplardan xam xuddi kunduz kungi yoruglik bulga-nidek elektr nurlari beriladi.

Restoranlarni yoritishning bir necha usullari bor:

Umumiy yoritish — xamma xonalar barobar yoritiladi.

Maxalliy yoritish — ayrim stollar, zalning bir kis-mi, ayrim zallar aloxida yoritiladi. Estradaga, rake tu-shuvchilarga maxsus yoruglik beriladi.

Aralash yoritish — yukoridagi xar ikki yoritishning birlikda olinishi.

Yoritishning xar bir sistemasi uziga xos yoritgichlarga ega. Bular kandillar, tarsherlar, bra, stol lampalari. Ularning mikdori xonalarning katta-kichikligiga boglik.

Yoritish normalari kuyidagi jadvalda beriladi.

Xonalar	Minimal yoritish, m ²		Yoritilishi lozim bulgan maydon me'yori
	Lyumines sent lampalar	Chutlan ma lampalar	
Restoran zalp	300	100	Poddan 0,8m
Kafe, bar zali :	200	75	Poddan 0,8 m
Xodimlar uchun xona	100	30	Poddan 0,8 m
Idshi yuvish, idish sak,lash xonasi	200	75	Poddan 0,8 m
Da ^{ttiz} , gardnrob,	100	50	Polda

sanitariya bulimi			
Bosh zinapoya	100	30	Zinalarda

Restoran ichini yoritish. Zal bezagi, kiyofasi uchun elektr nurlari, yoritilish, kunduzgi yoruglik muxim ahamiyatga ega. Yoruglik bir necha turlarga bulinadi: ilikdik-kuvonch beruvchi, sovuklik **xissi** tugdiruvchi, xotirjam kiluvchi **va** razab kuzgatib gashga teguvchi. Yoruglik kishini yengillash-"tirishi, xursand kilishi, dikkatni biron narsaga jalb kilishi yoki parishon xayol tomon olib ketishi mumkin.

Odamlar kunglini kutarish uchun kungilxush ranglar 'berilishi mumkin, masalan, tuk sarik, sarik rang beriladi. Zal kirishiga turli-tuman chirok, ranglari beriladi. Agar devorlar kizgishrok tusga buyalgan bulsa, xona shipi yaltirok rangda buladi. Ruxshunoslarning fikricha juda-**yam** yadtirok manzara odamlarda bezovtalik xissini uyro-tadi, bir xil rang bulishi esa zerikishga olib keladi.

Sun'iy yoritishda restoran raxbariyati buni 5;isobga olishi kerak.

Zal ichini bezash **uchun** material. Zal ichiga ishlov be-rish uchun foydalaniladigan materiallarga alox^{ida} e'ti-bor beriladi. Ular fakat sifati yukoriligi, chidamliligi ,bilangina emas, utkazmasligi, yor-namga bardoshligi, sani-¹ tariya-gigiiena talablariga javob berishi bilan xam aj-ralib turishi kerak. Zal ichiga ishlov berishda sintetik materiallar, yogochning kimmatbaxo turlari, metall va boshk,a materiallardan foydalaniladi. Restoran zallari devorlari, panellariga dub, yongok, buk, karel kayinidan , tayyorlangan materiallar, manzarali oboylar ishlatila-^{di}. Bu narsalar zallarni guzallashtiradi, chiroyiga chiroy •kushadi. Restoranning nomiga muvofiklashtirib bezak-lar x^{am} beriladi. Zalni bezaklar bilan yasatishda milliy, tarixiy, ertak, afsonalardagidek syujetlar va xozirgi zamon mavzulari yoritilishi kerak. X.ar bir mavzuga oid materiallar kullaniladi. Sirlangan gishtga manzarali san'at asari shaklida kurinish berish mumkin. Shuning-dek kulolchilik buyumlaridan, oynalardan foydalaniladi. Manzarali kurinish, raem, buyoklarga xos xolda daraxt kism-laridan xam ishlatilsa budadi. Ustunlar sirtidan sil-liklangan, laklangan taxtalar koplanadi. Taxtalarning chetlariga ixcham reykalari krkiladi. Bular uymakorlik asosida shakl berilgan materiallardir.

Zalning ob-xavo sharoiti. Restoran zalini arxitektura-rejalashtirishda ob-xavo va xavo namligiga xam e'ti-bor beriladi. Xavo xarorati 16—18° S, xavo namligi 60— 65 % bulishi nazarda tutiladi. Ishlab chikarish sexidan, -ayniksa, issik sexdan but aralash issik[^] xavoning zalga utmasligi choralari kuriladi.

Yoz oylari Uzbekistonda ob-xavo isib ketadi, tashka-ridagi xarorat 40 va undan oshgan paytlar kuyosh xona ichini xam kizitadi. Restoran derazalarining kuyoshga karagan kucha tomonlarida soyabonlar urnatiladi va issyak xavoni kayturuvchi moslamalar kuyiladi. Raxbarlar restoran ichi isib ketmasligi choralarini kuradi.

Zalning ventilyasiyasi. Restoran jixozlari ichida sha-mollatish tizimi xam tegishli urin egallaydi. Ventilyasiya ichkaridagi xavoni issiklikdan, nam va zararli bug-dan tozalaydi. Ventilyasiyaning asosiy vazifasi shun-dan iboratki, u zalga toza xavo kiritadi, ifloslangan xavoni xaydab chikaradi.

Restoran ichida xavo xarorati va xavo almashgnishining muxtasarlighi

Vino ichkarisi :	Xavo ?:arorat i, OS	.Xavo almashinish muxtasarlighi, "S	
		kirish	tortilishi
Dae^iz, peshzal	16	2	—
Chala tayyor ma^sulotlar, kulinar ma?(sulotlar, tushlik, kandolatso- tiladigan xonalar, sochik^ salfetka, xona maz^sulotlari	16	2	2
Zal, ovkattark^tish, bufet	16	Xisob buyic ha	^isob buyicha

Tabiiy shamollatish — oyna, fortochka, eshiklar orka-**li** doimo xavo almashib turadi. Maxsus kurilmalar orka-li shabada, shamol tulkinlari ichkariga kiritiladi. Res-toranlarda elektrodvigatel orkali ichkaridan buzill-an xavo chikariladi, tashkaridan toza xavo kiritiladi, bu restoran zali, xonalari va ishlab chik.arish ob'ektlarida bir meyorda xarorat bulishini ta'minlaydi, 50 kishigacha odam sigadigan zallarda fakat xavo tortadigan ventilyasiya sis-temasi urnatiladi. Katta zallarda xavo kiritadigan va chikaradigan kurilma urnatiladi. Yirik korxonalarda zal uchun, yordamchi xonalar, sexlar uchun aloxida-aloxida ventilyasiya tizimi buladi. Ventilyasiyani yokish yoki uchirish grafigi korxonaning ish grafigiga moe kelmay kodgan xol-lar xam buladi. Natijada zallarning gazlanishi yukori kutariladi, bu ish unumiga salbiy ta'sir kiladi, xatto ofitsiantlarning xastalanishiga olib keladi. Bunday xo-latlar bulmasligi chora-tadbirlarini kurish lozim.

ZALLARNI JIXOZLASH

Ma'lumki, restoranning yutugi fakat talabchan mijoz-larni ozik-ovkat, yaxshi xizmat bilangina kanoatlanti-rishda emas, u yerga urnatilgan kulay, chiroyli mebelda xam-dir. X.ozirgi kunda nafakat xorijdan keladigan mebel-lar, balki uzimizda, Uzbekistonda ishlab chikarilayotgan mebellar xam talabga tula javob beradi. Respublikadagi kushma korxonalar, xorijiy mamlakatlar ilgor texnologiya-si asosida chikarilayotgan mebellar yurtimiz restoranlari va boshka tashkilotlar binolarini bezamokda.

Restoranlardagi stol-stullar chiroyli bulishi bilan birga mustaxkam bulishi kerak, chunki ular doimiy foy-dalanishda buladi. Umumiy ovkatlanish tashkilotlar iga keltiriladigan mebellar respublikamiz mebel sanoati tomonidan kafolatlangan.

Restoranlar uzining milliy an'analari, xududning tarixiy axamiyati, atrof-dagi arxitektura ansamblidan kelib chikkani xolda uzlariga munosib mebellar buyur-tirishi xam m>'mkin.

Restoranlarning mebel bilan ta'minlanvsh normasi

Mebel	Mebellar soni. dona zal sitimi, urin-aar			
	75	100	150	200
1	2	3	4	5
?^arakatlanuvchi restoran stali	5	8	12	16
Turt urinli mukim turuvchi restoran stoli	10	12	19	25
Ikki urinli stol	8	10	15	20
Yarimyumshok stul	86	116	173	286
Yordamchi stol	6	6	8	10

Davomi

1	2	3	4	5
Servant (ofitsiant-par shkafi)	—	—	—	—
Bar stoli	—•	-	1	1
Bar stoliga kursi	-	—	10	15
Jurnal stoli • • ' <•••	—	—	2	2
Kreslo			6	6

Zalning asosiy jixozi tushlik va banket stollari, stullar, yarimkreslolar, yordamchi stollar, servantlar. Restoranda foydalaniladigan mebellar kator talablarga javob berishi kerak. Eng avvalo ular mustaxkam bulishi kerak, chunki ular restoran zalida uzluksiz foydalani-ladi. Stullar buyi, opil burchagi, orka suyanchigi — xamma-si fakat ovkat yeyish uch^ngina emas, ofitsiantning xizmat:

kilish kulayligini xam xisobga olgan xolda yasalishi ke-;

rak. Mebellar shakli, uning rangi zalning arxitektura;

kompozitsiyasiga, manzara kurinishiga va yoritilishiga moe kelishi shart.

:

Restoran zalidagi mebellarni shartli ravishda ikki guruxga budish mumkin: birinchi gurux — tushlik, banket taomlari yeyish uchun stol-studlar; utirish uchun stol, kreslo, divan, bar kursilari; taom, idishlar tashiydigan aravacha, idishlar kuyiladigan yordamchi stollar va xokazo. Ikkinchi gurux — idish-tovokdar va boshka oshxona an-jomlari kuyiladigan servantlar, bufet, kafeteriy, bar-lar, ular anjomlari, maxsulotlari sakdanadigan joylar.

Stollar. Restoran stollari ishxonadagi, taom tarkatish joyidagi stollardan tubdan fark kiladi. Taom iste'mol kilayotgan xuranda stolida birdaniga birinchi, ikkinchi va uchinchi taom va boshkd yordamchi narsalar xam bulishi mumkin. Buni albatta xisobga olish kerak.)(ar bir uringa 0,25— 0,29 m² joy bulishi muljallanadi. Amalda restoran stoli-ning

eni 800—900 mm buladi. Kvadrat stollar bilan birga turt burchak stollar xar. buladi, ularning eni 600—900 mm va uzunligi 900—2200 im, shuningdek, dumalok stollar — diametri 600—1300 mm balanligi 690—750 mm.

Stollarning oyoklari asosan temirdan ishlanadi. Eng keng tark^algan kanstruksiyasi turt oyokdi stollardir, bir

tayanchga ega stollar xam ishlatiladi. Restoran stollari-ning shakllari kvadrat, turt burchakli va dumalok buladi.

Banketlar utkazishda foydalaniladigan stollar banket stollaridir. Banket stollarining balandligi 760— 780 mm, eni 1200—1500 mm. Tikka turib ovkat yeydigan stollarning buyi 900—1000 mm, eni 1200—1500 mm.

" Restoran stollarining ulchami, mm

Eni	Uzunligi			Buyi	
	Ikki Urinli	Turt urinli			Olti urinli
		Kvadrat	Turt burchak		
800	625	800	1250	1875	740-750
850	650	850	1300	1950	740-750
900	700	900	1400	2100	740-750
Dumalok.					
Diametri	700-1100	900-1100	900-1100	1300	740-750

Stollarning ustiga poliefir krplamalari yopiladi, bu servirovka kilinadigan idishlarning kuyilishi-oli-nishida shavk^in-suron bulishini cheklaydi. Dasturxon ostidagi bu koplama matodan gilof kilinadi, u almash-tirib turish uchun kulay. kup xollarda stollarning taxta-dan yasalgan yuzlariga jundan kilingan k,alinrok matodan koplanadi, uning ustida dasturxon tekis yotadi. **Bu**-larni buyolgan materialdan kilish yaramaydi, chunki namlanganda dasturxonga buyogi utib ketadi. Shu materialdan gilof tikib, burchaklariga ip utkazib stolning oyokdariga tortib boglab kuysa xam buladi.

Stol usti 850x 1200 yoki 900x800 mm ulchamda bulganda zal maydonini tejab foydalanish imkoniyati tugiladi. **12** kishini joylashtirish uchun uzunligi 3,6—4,2 m li tugri turtburchak stol kerak, u 3,5 m² maydonni band kiladi. Xuddi shuncha odamga dumalok, stol bulsa, 5,5 m² joyni egallaydi. Shu narsani xisobga olish kerakki, tugri turtburchak va kvadrat stollarni zururiyat tugilsa, bir-biri-**ga** ulab yubarish mumkin. Dumalok stollarni zal markazi-**ga**, tugri turtburchaklarini devor tomonga urnatish **mak-**sad ga muvofikdir.

X,ozirgi paytda keng kulaniladigan stollarning ulcha-mi: eni 850 mm, buyi 720 mm. Bular jumlasiga: ikki ki-shilik (850x700 mm), turt urinlik kvadrat (850—850 mm), xarakatlanuvchi tugri turtburchakli (850x1200x2040 mm) stollar kiradi. Kresloning enini

xisobga olib (550— 630 mm), tugri turtburchakli stollarni bir kishiga 670— 700 mm me'yorda loyixalashtirish nazarda tutilgan.

Yordamchi-xizmat stollariga ofitsiantlar patnislar va foydalanilgan idish-tovokdarni kuyadi. Yordamchi stollarning usti ovkatlanadigan stollarga moe bulishi kerak: uzunligi — 850—900, balandligi — 740—750, eni — 600 mm. Ovkatlanish stoliga maxsulotlarni gildirakli aravachada olib boriladi.

Banket stollari. Banket stollarining balandligi 760—780 mm. eni 950—1000 mm buladi. Banket zallarida odatdagi kvadrat yoki tugri turtburchakli stollar ishla-tiladi. Ulardan^xoxlagan shakldagi va xajmdagi joy tay-5 yorlash mumkin. Yigishtiriladigan yigma stollardan xam foydalaniladi.

Stullar (yoki yarimyumshok kreslolar). Bu stullarninm mikdori zaldagi urinlarga yetarli bulishi kerak. Bu stul^ larning orka suyanchigi 50 sm dan ortik, bulmasligi ke\rak. Agar orka suyanchik baland bulsa, ofitsiant mexnati^ ni ogirlashtiradi.

Banket zallarida studlar urniga yarimkreslolardan foydalanish tavsiya kilinadi, ular me^monlar uchun kulay-dir. Albatta, restoranga stul tanlashda mijozlar didiga yokadiganini olish kerak.

Sanoat ishlab chikarayotgan stullarning oyoklari yogoch-dan yoki temirdan kilinadi, usti porolon, yuviladigan sintetik material yoki matodan foydalaniladi. Barlar uchun aylanadigan kursilar ishlatiladi.

Servant — bu ofitsiantning shkafi bulib, unda idish-lar, oshxona anjomlari, sochiklar va boshka kerakli nar-salar saklanadi. Servantning tepa kismi yordamchi stol sifatida foydalaniladi. Servant ichiga ofitsiant ?;ozir-cha ishlatilmaydigan anjomlarni kuyadi. Kuyi katlamda idish-tovokdar saklanadi. Servantlar xilma-xil kurinish-larda buladi. Ularni devor oldiga kuyadilar. Uncha katta bulmagan restoranlarda kichikrokservantlar buladi, ularda tortma kutilar mavjud. Ofitsantlar taom va ichimliklarni **olib** kelib servant ustiga kuyishi, ishlatilgan idish-larni bu yerga keltirishi mumkin. Servantning balandligi 900 mm, uzunligi 1000 mm, eni 450 mm bulishi mumkin.

BUFeT

Restoran va kafelardagi bufetlar ofitsiantlarga xar xil ichimliklar, kandolat, meva, muzkaymok, tamaki max-sulotlari beradi.)<amma katta restoranlarda uch xil bufet buladi: asosiy, kofe beradigan va non maxsuloti beradigan.

Asosiy bufet — ikki bulimdan iborat xona. Birinchi bulim ofitsiantlarga bufetdagi bor maxsulotlarni beradi. **Shu** maksadda bufet peshtaxtasi jixozlanadi, uning ichki galadonlarida kundalik maxsulot zaxiralari saklanadi, Sovutgich vitrinalari urnatilib, bu yerga mevalar, alkogol-siz ichimliklar, kandolat maxsulotlari, vino-aroklar kuyi-ladi. Bunday vitrinalarning mavjudligi ofitsiantlarning maxsulotni osonlikcha togshb olishiga imkon beradi.

Shu yerda tarozi va ichimliklar ulchaydigan idishlar, sharbatlarni sovutadigan apparatlar buladi, bufetchining oldida issik va sovuk suv bulishi kerak-

Ikkinchi bulim — bufetning orka tomonida buladi, mevalar, ma'danli suvlar, pivo, arok, shampan va ok osh-xona vinosi sovutgich shkafida sak;lanadi va mijozlar talabi bilan yaxna xolda beriladi. Muzlatgich shkaflari ichi xar xil xaroratli 3—4 tokchaga

bulinadi. Mijoz-larga berilganda shampän vinosi 5--b°S, ok oshxona vinosi va ichimlik suvlar 10—12° S bulishi mumkin. Katta restoran bufetlari sovutgich shkaflaridan tashkari sovutgich kameralari bilan xam jixozlanadi.

Kafe bufeti — issik, suyuq ichimliklar tayyorlash va tarkagish xizmatini utaydi. Bu yerda kofe maydalagich va kofe kaynatadigan apparat buladi. Bufetchi kofe mashi-nasaa juda tez va tegishli meyordaga, tegishli xaroratda-gi kofeni tayyorlab berishi mumkin.

Jaxonda juda kup mamlakatlarda kofe tayyorlaydigan mashinalar mavjud, ammo eng ommaviylashgani Italiya-ning avtomatik mashinalaridir. Bu mashina bufetchilar uchun ^am juda kulay. Bu ekspres mashina kofe kaynatuv-chi, kofe yanchuvchi, suv ilituvchi, idishlarni yuvuvchi **kismlardan** iborat. Kofe **tayyordash bufetida v^uyidaga** yunaliqlar buyicha mashinalar buladi;

- yarimavtomatik;
- avtomatik;
- superavtomat.

Yarimavtomat mashinalarning afzalligi shundaki, ular juda oddiy va arzon. **Bu** mashinaning kamchiligi shundan iboratki, u ishlagan paytda bufetchi kuzatib **turishi kerak**, boshka ish bilan band bula olmaydi.

Avtomat mashinalarning kulayligi shundan iboratki, xizmatchi yoki bufetchi mashina knopkasini bosishi bilan kiska muddat ichida tayyor maxsulot chikadi.

Superavtomatlar xamma narsani uzi kiladi; kofe donalarini uzi soladi, uzi yanchadi, kerakli mikdorni ulchaydi, presslaydi va xar xil turdagi kofeni tayyorlab beradi. Tugrisini aytganda bu apparatlar ancha kimmat turadi, ammo sifatl yukori, 250 chashka kofeni bir soat-da tayyorlab chikaradi. Bu Cimbali modifikatsiyasidagi mashina butunlay avtomatlashtirilgan. Bu apparatning | konstruksiyasida kofe tayyorlash soxasidagi eng sunggi texnologik yutuklardan foydalanilgan. Bitta knopkani bosish bilan 16 xil ichimlik tayyorlanadi.

